

**Baxtiyor Mengliyev  
Mahbuba Xudoyberdiyeva  
Oynisa Boymatova**

**O‘ZBEK TILI IBORALARINING  
O‘QUV IZOHLI LUG‘ATI**

**Maktab o‘quvchilari uchun**

0'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi  
Qarshi davlat universiteti  
0'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi vazirligi  
Respublika Ta'lim vazirligi  
Qashqadaryo viloyat pedagog xodimlarni qayta tayyorlash  
va malakasini oshirish instituti

**Baxtiyor Mengliyev  
Mahbuba Xudoyberdiyeva  
Oynisa Boymatova**

**O'ZBEK TILI IBORALARINING  
O'QUV IZOHLI LUG'ATI**

**(Maktab o'quvchilari uchun)**

**Toshkent**  
**«Yangi asr avlodi»**  
**2007**

Lug‘at, avvalo, o‘rta maktab o‘quvchilari uchun mo‘ljallangan. U, shuningdek, ona tili va adabiyot fani o‘qituvchilari, filolog talabalar va qolaversa, o‘zbek tili bilan qiziquvchi kehg o‘quvchilar ommasi uchun ham foydadan xoli emas.

Mas’ul muharrir  
**Hamid Ne’matov**  
filologiya fanlari doktori, professor

Taqrizchilar  
**To‘ra Nafasov**  
filologiya fanlari nomzodi, professor

**Xosiyat Suvonova**  
Qarshi shahar 34-o‘rta maktab oliy toifali ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi

# **ALIFBO**

**A    B    D    E    F    G  
H    I    J    K    L    M  
N    O    P    Q    R    S  
T    U    V    X    Y    Z  
O‘ G‘ SH CH NG ‘**

## SO‘ZBOSHI

Kuchli va ayovsiz raqobatga asoslangan bozor iqtisodiyoti tadbirkor, ijodiy taffakkur sohibi bo‘lgan, har qanday qiyin vaziyatdan o‘z aql-idroki bilan omon chiqa oladigan mustaqil fikrli, shu bilan birga, shuurida milliy ruhi mustahkam shaxsni tarbiyalashni talab qiladi.

Inson shaxsida ruh, tafakkur va til chambarchas bog‘liqdir. Demak, ijodiy va mustaqil taffakkurli shaxs tarbiyasida ona tili va uning ta‘limini tashkil etuvchi vositalarning roli beqiyos.

Ma‘lumki, o‘rta maktab ona tili ta‘limining konseptual asoslarida uining zaruriy vositasi ikkita ekanligi ta‘kidlanadi: darslik va lug‘atlar. O‘quvchilarning ijodiy tafakkurini va nutqini o‘stirishning zaruriy omillaridan biri lug‘atlar ustida ishlashdir. Lug‘atlar o‘quvchilarning ijodiy tafakkuri, mustaqil fikrlash darajasi, ijodiy fikr mahsulini og‘zaki va yozma shakllarda ravon bayon etishga olib keladigan behad qimmatli va boy so‘z zahirasini vujudga keltiradi. Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlarda ta‘limning har bir bo‘g‘ini uchun (bog‘chadan tortib, universitetgacha) yuzlab lug‘atlarning maxsus turlari yaratilgani, hatto rus maktablari uchun 30 ga yaqin o‘quv lug‘atları mavjud bo‘lgani holda o‘zbek maktablari uchun bitta «Imlo lug‘ati» bor, xolos. Maktablar uchun izohli lug‘at, ma‘nodosh so‘zlar lug‘ati, antonimlar lug‘ati, darajalanish lug‘ati, eskirgan so‘zlar lug‘ati, shevaga xos so‘zlar lug‘ati, iboralar lug‘ati, so‘zlarning birikuvchanlik lug‘ati, uyadosh so‘zlar lug‘ati, shakldosh so‘zlar lug‘ati, so‘z tarkibi lug‘ati, talaffuzdosh so‘zlar lug‘ati, shuningdek, har bir fan bo‘yicha alohida terminologik lug‘atlar va qomuslar yaratish dolzarb vazifadir.

O‘quvchilar uchun zarur lug‘atlar yaratilmas ekan, ijodiy tafakkurni rivojlantirish mumkin emas, og‘zaki va yozma nutqni o‘stirish vositasi bo‘lgan joriy darsliklar o‘z vazifasini to‘la bajara olmaydi. Bu o‘rta ta‘lim bo‘g‘ini uchun mavzuviy o‘quv lug‘atlarini yaratish tamoyillarini ishlab chiqish va tuzishni taqozo qiladi.

Qarshi davlat universiteti o‘zbek tilshunosligi kafedrasи professor-o‘qituvchilari Qashqadaryo viloyat pedagog xodimlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti bilan hamkorlikda maktablar uchun mavzuviy o‘quv lug‘atlarini ishlab chiqishdek sharafli vazifani o‘z zimmalariga oldilar va buning natijasi o‘laroq kelajagimiz faxri bo‘lgan maktab o‘quvchilari uchun shu tipdagи o‘quv lug‘atlari turkumi yaratildi.

O‘quv lug‘atları tajriba sifatida birinchi marta nashr qilinayotganligi uchun kitobxonlar muhokamasiga havola etiladi. Lug‘atlar haqidagi fikrlaringizni mammuniyat bilan qabul qilamiz.

Manzil: Qarshi shahri Ko‘chabog‘ ko‘chasi, 17-uy. Qarshi davlat universiteti o‘zbek tilshunosligi kafedrasи. Tel: (8-375) 25-77-63; 23-48-55). Faks: (8-375) 221-13-12. E-mail:kasu\_info@edu.uz.

**B.R.Mengliyev**  
filologiya fanlari doktori, professor

## TUZUVCHILARDAN

Qo'lingizdagи lug'at 2 tomlik "Ozbek tilining izohli Lugati", Sh.Rahmatullayev tomonidan tartib berilgan "O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati"dan foydalangan holda tuzildi. Shuning uchun tuzuvchilar mualliflikka da'vogar emaslar.

Lugat maqolalari alfavit tartibida tuzilgan bo'lib, unda mingga yaqin iboraga qischa nutqiy izoh berildi.

Iboralar birdan ortiq variantga ega bo'lsa, ular ketma-ket vergul bilan ajratilgan holda berilib, so'ngra izohlandi:

**Avra-astarini ag'dardi, avra-astarini qoqdi, avra-astari so'kildi, avra-astari qoqildi** – barcha kirdikorlarini ochib tashladi.

**Avj oldi, avjiga mindi, avjiga chiqdi** – 1) rivojlandi 2) zo'raydi, kuchaydi.

Fe'llar o'quvchilarga qulaylik maqsadida asosan yaqin o'tgan zamон shaklida berildi:

**Aqldan ozdi** – jinni bo'ldi, telba bo'ldi, esi og'di

**Aqli kirdi** – 1)es- hushli bo'ldi 2) angladi, tushundi

**Aqli yetdi** – idrok qildi, uqdi, bildi

**Aqlini tanidi** – es-hushli bo'ldi

**Aqlini yedi** – miyasi ishlamay qoldi, fikrlash qobiliyatini yo'qotdi

**Aql-u hushini yo'qotdi** – o'z harakatlarini boshqara olmaydigan darajaga yetdi

Agar ibora ko'p ma'noli bo'lsa, uning har bir ma'nosi arab raqami bilan raqamlangan tarzda berildi:

**Bag'ri xun bo'ldi** - 1)ziq bo'ldi 2)ruhan azoblandi

**Baland keldi** – 1)yengdi 2)ustun keldi, g'olib keldi

**Barmog'ini tishladi** – 1) hech narsa qilolmay, natijaga erisholmay qoldi  
2)afsuslandi

Shakldosh iboralar alohida-alohida ravishda rim raqamlari bilan berildi:

**Dunyodan o'tdi I** – yashab o'tdi

**Dunyodan o'tdi II** – qazo qildi, o'ldi

**Dong qotdi I** – kutilmagan hodisaga duch kelib, karaxt bo'lib qoldi

**Dong qotdi II** - hech narsani sezmaslik darajasida qattiq uxladi

-A-

**Abjag‘i chiqdi** – qattiq jarohatlandi, ishdan chiqdi  
**Achchig‘idan tushdi** – achchiqlanishdan to‘xtadi  
**Achchig‘i keldi, achchig‘i qistadi** - achchiqlandi  
**Adabini berdi** – qilmishiga yarasha jazoladi  
**Adi-badi aytishdi** – 1) turli mavzuda yengil-yelpi suhbatlashdi 2) so‘z tashlashdi, janjallahshdi  
**Ahamiyat berdi** – zarur, foydali deb qarab diqqat qildi  
**Alifni kaltak deyolmaydi** – g‘irt savodsiz, hech narsa bilmaydi  
**Almisoqdan qolgan** – juda eski, qadimgi  
**Amalga oshdi** – voqelikka aylandi  
**Ammamning buzog‘i** – landovur, lapashang  
**Amri mahol** – qiyin, gumon  
**Anqoning urug‘i** – topilishi qiyin, kamyob narsa  
**Aqldan ozdi** – jinni bo‘ldi, telba bo‘ldi, esi og‘di  
**Aqli kirdi** – 1) es- hushli bo‘ldi 2) angladi, tushundi  
**Aqli yetdi** – idrok qildi, uqdi, bildi  
**Aqlini tanidi** – es-hushli bo‘ldi  
**Aqlini yedi** – miyasi ishlamay qoldi, fikrlash qobiliyatini yo‘qotdi  
**Aql-u hushini yo‘qotdi** – o‘z harakatlarini boshqara olmaydigan darajaga yetdi  
**Aravani quruq olib qochdi** – uddasidan chiqa olmaydigan ish yoki narsa haqida ortiq darajada maqtandi  
**Aro bermoq** – ko‘rinishini ko‘rkam, chiroyli qildi  
**Arpasini xom o‘rdi** – nima yomonlik qildi  
**Asabiga tegdi** – asabini qo‘zg‘atdi, ranjitdi  
**Avra-astarini ag‘dardi, avra-astarini qoqdi, avra-astari so‘kildi, avra-astari qoqildi** – barcha kirdikorlarini ochib tashladi  
**Afti sovuq** – yoqimsiz, badhazm  
**Achasini uch qo‘rg‘ondan ko‘rsatdi** - do‘q qildi, qo‘rqiidi, adabini berdi  
**Avj oldi, avjiga mindi, avjiga chiqdi** – 1) rivojlandi 2) zo‘raydi, kuchaydi  
**Avjga yetdi, avjga mindi** – yuqori darajaga ko‘tarildi  
**Avzoyi buzildi** – vajohati yomonlashdi, achchiqlandi  
**Azob chekdi, azob tortdi** – juda qiynaldi  
**Alam chekdi** – juda qiynaldi  
**Aytgani aytgan, degani degan** – gapi o‘tadi

-B-

**Badanidan o‘tib ketdi** - 1) jismiga chuqur ta’sir qildi 2) ruhiga chuqur ta’sir qildi  
**Bag‘ri qon** – g‘am -alamli, g‘am-alamda  
**Bag‘ri tosh** – bemehr, iltifoti yo‘q  
**Bag‘ri ezildi** - ruhan azoblandi  
**Bag‘ri xun bo‘ldi** - 1) ziq bo‘ldi 2)ruhan azoblandi  
**Bahri ochildi** – kayfiyati yaxshilandi  
**Bahridan o‘tdi** – voz kechdi  
**Baho berdi** – qadr-qimmatini belgiladi  
**Bajo keltirdi** – bajardi, o‘rinlatdi  
**Baland keldi** – 1) yengdi 2)ustun keldi, g‘olib keldi  
**Balog‘atga yetdi** – ulg‘aydi  
**Balog‘a qoldi** – javobgarlikka, jazoga duchor bo‘ldi

**Bardosh berdi** – chidadi  
**Barmog‘ini bigiz qildi** - niqtab ko‘rsatdi  
**Barmog‘ini tishladi** – 1) hech narsa qilolmay, natijaga erisholmay qoldi 2) afsuslandi  
**Barq urdi** – gurkirab, g‘oyat tez yayrab-yashnadi  
**Bas keldi** – teng keldi, baravar keldi  
**Bino qo‘ygan** – ortiqcha baho bergen, yuksak fikrda bo‘lgan  
**Bir og‘iz** – juda oz, jindak  
**Bir boshini ikkita qildi** – oilali qildi  
**Bir boshdan** – boshlanishidan, tartib bilan  
**Bir cho‘qishda ochiradi** – juda ustun chiqdi, osonlikcha yengdi  
**Bir jon-bir tan bo‘ldi** – hamjihat bo‘ldi, yakdil bo‘ldi  
**Bir kun bo‘lmasa-bir kun** – qachondir, kelgusida  
**Bir kesak bilan ikki quyonni urdi** – ayni bir vaqtda ikki narsani ko‘zlab ish tutdi  
**Bir ikki o‘g‘iz** - ozgina, andak  
**Bir ikki shingil** - ozgina, andak  
**Bir pul** – qadr-qiyomatsiz  
**Bir pul bo‘ldi** – barbod bo‘ldi  
**Bir qoshiq suv bilan yutib yuborguday** – beqiyos go‘zal, nihoyatda dirlab  
**Bir shingil** – jindak, qittak, juda oz  
**Bir so‘zi ikkita bo‘lmadi** – aytgani bajarildi  
**Bir yostiqqa bosh qo‘ydi** – turmush qurdi  
**Bir yoqadan bosh chiqardi** – hamjihat bo‘ldi, yakdil bo‘ldi  
**Bir yoqli bo‘ldi** – hal bo‘ldi, ajrim bo‘ldi, tugadi  
**Bir yoqda tursin** - zidlash ma’nosini anglatib, bog‘lovchi vazifasida keladi  
**Bir ovozdan** – yakdillik bilan, hamjihatlik bilan  
**Bir oyog‘i yerda, bir oyog‘i go‘rda** – umri tugay deb qolgan  
**Bir paqir bo‘ldi** – barbod bo‘ldi  
**Bir chaqalik** – qadr-qiyomatsiz  
**Bir chekkadan** – boshlanishidan tartib bilan  
**Bir chimdim** - qittak, ozginagina  
**Bo‘yi yetdi** – oila qurish yoshiga yetdi  
**Bo‘yin egdi** – itoat qildi  
**Bo‘yni yor bermadi** – izzat-nafsi yo‘l qo‘ymadi  
**Bo‘ynidan soqit qildi** – o‘zini javobgarlikdan xoli qildi  
**Bo‘yniga qo‘ydi** – 1) to‘nkadi, ayb ag‘dardi 2) bajarishga rozi qildi  
**Bo‘yniga tushdi** – zimmasiga yuklandi  
**Bo‘yniga oldi** – e’tirof qildi, biror holatga rozi bo‘ldi  
**Bo‘ynini xam qildi** – itoatli bo‘ldi  
**Burgaga achchiq qilib ko‘rpani kuydirdi** – arzimagan narsani deb jahl ustida nojo‘ya, zararli ish qilib qo‘ydi  
**Burni ko‘tarildi** – gerdayib ketdi, kibrga berildi  
**Burni osmonga ko‘tarilgan** – gerdaygan, kibrlangan  
**Burnini yerga ishqadi** – qattiq jazoladi  
**Burnini suqmoq** - 1) kirmoq 2) aralashmoq  
**Burnini tiqmoq** - aralashmoq  
**Bu qulog‘dan kirib, u qulog‘dan chiqib ketadi** - e’tibor bermaydi, xotirasida tutib qololmaydi  
**Bezori jon qildi** – ortiq toqat qilolmasligi tufayli o‘limiga ham rozi qildi  
**Bel bog‘ladi** – shaylandi, astoyidil kirishdi  
**Bel bog‘lashdi** – musobaqalashdi

**Bel olishdi** – kurash tushdi, kuch sinashdi  
**Beli og‘rimaydi** – mashaqqat chekmaydi, qiyalmaydi  
**Beliga tepdi** – xalaqit berdi  
**Beti chidaydi** – nomus qilmaydi, uyalmaydi, andisha qilmaydi  
**Beti chidamadi** - andisha qildi, nomus qildi  
**Beti shuvut** – uyatli,  
**Betlamaslik** - nimadandir xavfsirab, biror ishga jazm qila olmaslik  
**Betiga soldi** - aybli deb qaralgan kishining o‘ziga kesatib, achitib gapirdi  
**Beti ochilib ketgan** - uyalmaydigan bo‘lgan  
**Besh barmog‘ni og‘ziga tiqdi** - hovliqib, lozim bo‘lganidan ko‘ra ortiqroq narsani ro‘yobga chiqarish uchun intildi, nafsga berildi  
**Boy berdi** -1)yutqizdi 2)behuda, befoyda o‘tkazdi  
**Bosh egdi** – itoat qildi, bo‘ysundi  
**Bosh qo‘shti** – aralashdi, qatnashdi  
**Bosh qotirdi** – astoydil o‘yladi, chuqur fikrladi  
**Bosh suqdi** –1)gavdasi tashqarida qolib, boshini tiqqan holda qaradi 2)aralashdi  
**Bosh og‘rig‘i** – ortiqcha tashvish, dahmaza  
**Bosh ko‘tardi I** -1) qaradi 2) qilib turgan ishini to‘xtaldi 3)qo‘zg‘aldi, harakat qildi 4) kurashga chog‘landi  
**Bosh ko‘tardi II** - unib chiqdi  
**Boshlarini bir joyga qovushtirdi** – 1) hamjihat bo‘lib birlashtirdi 2) oila qurdirdi  
**Boshi aylandi** – 1)behud bo‘ldi, muvozanatini yo‘qotdi 2)esankiradi  
**Boshi bilan sho‘ng‘ib ketdi** – butunlay berilib ketdi  
**Boshi chiqmadi** – xalos bo‘lmadi, qutulmadi  
**Boshi ikkita bo‘ldi** – uylandi  
**Boshi ko‘kka yetdi** – behad sevindi  
**Boshi shishdi** – o‘ylayverib gangidi  
**Boshi yostiqqa yetganda** – kasal bo‘lib qolganda  
**Boshi oqqan tomon** – duch kelgan taraf  
**Boshi osmonda** – nihoyatda xursand  
**Boshi g‘ovladi** - o‘ylayverib gangidi  
**Boshida danak chaqdi** – ortiq darajada azobladi  
**Boshidan kechirdi** – 1)o‘z hayotida ko‘rdi 2)ma’lum bir muddat fikrladi  
**Boshidan oshib yotibdi** - ortiq darajada, benihoya ko‘p  
**Boshdan oyoq** – to‘la-to‘kis, bus-butun  
**Boshiga keldi** - o‘yladi, idrok qildi, fahmladi  
**Boshiga ko‘tardi I** – qattiq shovqin soldi  
**Boshiga ko‘tardi II** – yuksak darajada izzat-hurmat qildi  
**Boshiga qilich kelsa ham** – har qanday sharoitda ham  
**Boshiga urmaydi** – kerak emas  
**Boshiga yetdi** – halok qildi  
**Boshi aylantirdi** – esankiratdi  
**Boshi achidi** - fikrlash qobiliyatini yo‘qotdi  
**Boshini achitdi** – me’yoriy fikrlash qobiliyatini yo‘qotdi  
**Boshini bukdi** – uyat-nomusdan bosh ko‘tarolmaydigan holatga tushirdi  
**Boshini yedi** – yo‘q qildi, halok qildi  
**Boshini og‘rittdi** – 1) o‘yladi 2) miyasini charchatdi  
**Boshini olib ketdi** – butunlay tashlab ketdi  
**Boshini ko‘tardi** - yotib qolgan xastalikdan keyin sog‘aya boshladi

**Boshini qayoqqa urishini bilmadi** - ilojini topa olmadi  
**Boshini xam qildi** – uyat-nomusdan boshini ko‘tarolmaydigan holatga tushirdi  
**Bog‘dan kelsa, tog‘dan keladi** - suhbatdoshining gapiga hech aloqasi yo‘q gap-so‘z aytdi  
«**Bo‘rk ol» desa, bosh oldi** – biror ishni lozim bo‘lganidan ham qo‘pol qilib bajardi  
«**Berdi»sini aytdi** – oxirini gapirdi  
«**Berdi»sini aytguncha urib o‘ldirdi** – gapirib bo‘lguncha kutmay (chidamay) biror narsa dedi

-CH-

**Changal soldi** – 1)astoyidil tashlandi 2)g‘ayri qonuniy tarzda yopishdi  
**Chang soldi** – 1)astoyidil tashlandi 2)g‘ayri qonuniy tarzda yopishdi  
**Chippakka chiqdi** – bekor bo‘ldi  
**Childirmasiga o‘ynadi** - izmi bilan, yo‘l-yo‘rig‘i bilan ish ko‘rdi  
**Chiroyi ochildi** – xafachiligi tarqadi  
**Chizgan chizig‘idan chiqmaydi** – barcha talablarini to‘la-to‘kis bajardi, ko‘rsatmasiga ko‘ra ish tutdi  
**Chigilini yozdi** – 1) xafachiligin tarqatdi 2) charchog‘ini tarqatdi  
**Chiqdi (turmushga)** - oila qurdi(xotin–qizlarga nisbatan)  
**Chuchvarani xom sanabsan** – xom xayol qilib yuribsan, xomtama bo‘libsan  
**Chumchuq «pir» etsa, yuragi «shir» etadi** – o‘taketgan qo‘rroq  
**Chehrasi ochiq** – xushtabiat, kayfiyati yaxshi  
**Chehrasini ochdi** – 1)xafachiligining tarqaganini ko‘rsatdi  
2)go‘zallashtirdi  
«**Churq» etmaydi** – hech narsa demaydi, e’tiroz qilmaydi

-D-

**Dabdalasi chiqdi** – 1) sifatini yo‘qotib, yaroqsiz holga keldi 2)yanchib tashlandi  
**Dam berdi** – 1) havo oqimini kuch bilan haydar kiritdi 2) tinishga ruxsat etdi  
**Dam berildi** – istirohat qilishga imkon berildi  
**Dam oldi** – istirohat qildi, hordiq oldi  
**Dami chiqmadi** – hech narsa demadi, indamadi  
**Dami ichida** – oshkor bo‘lishidan qo‘rqib gapirmaydi, imkonsizlikdan biror narsa deya olmaydi  
**Dami ichida qoldi** – bir so‘z ham ayta olmay qoldi  
**Dami ichiga tushib ketdi** - qo‘rquv aralash hech narsa deyolmay lol bo‘lib qoldi  
**Damini bosdi** - ta’sir kuchini qaytardi, yo‘qotdi  
**Damini ichiga yutdi** – hech qanday tovush chiqarmaydi  
**Damini kesdi I** – gapirtirmadi  
**Damini kesdi II** - ta’sir kuchini qaytardi, yo‘qotdi  
**Darak berdi** – xabardor qilib qo‘ydi  
**Dargohiga bosh urdi** – xokisor bo‘ldi, xokisorlik qildi  
**Daqyonusdan qolgan** - juda eski, qadimgi  
**Dil tortar** – yoqimli  
**Dilga tugdi** - 1)o‘rni kelganda aytishni mo‘ljallab qo‘ydi 2)ahd qildi 3)fikran belgilab qo‘ydi 4) unutmay ichda saqladi  
**Dilidan o‘tkazdi** - ma’lum bir muddat fikrladi  
**Dili yorishdi** – xafachiligin tarqatib, xursand bo‘ldi  
**Dili og‘ridi** – ranjidi  
**Dili tortdi** – yoqtirdi

**Dili xira** – tashvishli, bezovta, notinch  
**Dili siyoh bo‘ldi** – juda xafa bo‘ldi  
**Dimog‘i chog‘** – kayfiyati yaxshi  
**Dimog‘i shishdi** – kibrlandi, gerdaydi  
**Dimog‘i ko‘tarildi** – gerdayib ketdi, kibrga berildi  
**Diydor ko‘rishdi** – bir-birini oradan ancha vaqt o‘tgandan keyin ko‘rdi  
**Do‘ppisi tor keldi** – ilojsiz og‘ir ahvolga tushdi  
**Do‘ppisini yarimta qilib** - g‘am emasdan, shod- surram bo‘di  
**«Do‘ppi ol» desa, bosh oldi** – biror ishni lozim bo‘lganidan ham qo‘pol qilib bajardi  
**Do‘ppisini osmonga otdi** – juda xursand bo‘ldi  
**Do‘q urdi** – qo‘rqitish maqsadida baqirib-chaqirib gapirdi  
**Duch keldi** – kutilmaganda yo‘liqdi, bexosdan uchratdi  
**Dumini tugdi** - qaytmas qilib haydadi  
**Dumi xurjunda** - o‘lda- jo‘da, to‘mtoq  
**Dunyodan o‘tdi I** – yashab o‘tdi  
**Dunyodan o‘tdi II** – qazo qildi, o‘ldi  
**Dunyodan ketdi** – qazo qildi, o‘ldi  
**Dunyodan ko‘z yumdi** – qazo qildi, o‘ldi  
**Dunyodan toq o‘tdi** – umrini turmush qurmoy o‘tkazdi  
**Dunyoni suv bossa, to‘pig‘iga chiqmaydi** – o‘taketgan beg‘am, haddan tashqari beparvo  
**Dunyoga keldi** - tug‘ildi  
**Dod soldi** – dod-voy qildi, qichqirdi  
**Don olishdi** - yaqin aloqada bo‘ldi  
**Dong qotdi I** – kutilmagan hodisaga duch kelib, karaxt bo‘lib qoldi  
**Dong qotdi II** - hech narsani sezmaslik darajasida qattiq uxladi  
**Dovrug‘i ketdi** – ma’lum-mashhur bo‘ldi  
**Dog‘da qoldi** - biror narsaning kutilgancha bo‘limgani tufayli o‘kindi, alamzada bo‘ldi  
**Dong‘i ketdi** – ma’lum-mashhur bo‘ldi  
**Dong‘i dog‘istonga ketdi** – ma’lum-mashhur bo‘ldi

## -E-

**Egardan tushmaslik** - mavqeini yo‘qotganiga qaramay, o‘zini avvalgiday tutdi  
**Egilgan boshi** - uyat-nomusdan bosh ko‘tarolmaydigan holatga tushirdi  
**E’tibor berdi** – diqqat bilan qaradi  
**Egri qo‘llik qildi** – mayda o‘g‘irlilik qildi  
**Eldan burun** – vaqtidan oldin, barvaqt  
**Elburutdan** - vaqtidan oldin, barvaqt  
**Ellik og‘iz** – juda ko‘p  
**Enka-tenkasi chiqdi** – 1)qiynalib ketdi 2)to‘satdan qattiq qo‘rqdi  
**Ensasi qotdi** – ranjib, noxush bo‘ldi  
**Ep ko‘rmaydi** – noloyiq, yarashmaydigan ish deb bildi  
**Erdan chiqdi** – ajrashdi  
**Erga berdi** – uzatdi  
**Erga tegdi** – oila qurdi  
**Es kirdi** - 1)es-hushli bo‘ldi 2) angladi, tushundi  
**Es- hushini olib qo‘ydi** – o‘ziga o‘taketgan darajada mahliyo qilib oldi  
**Es- hushini olib qochdi** – xayolini o‘ziga tortibolib qoldi  
**Es- hushini yo‘qotdi** - 1) behush bo‘ldi 2) esankiradi

**Es(im) qursin** – nimanidir esdan chiqarganda o‘ziga tanbehni, kojishni ifodalaydi  
**Esga oldi** – xotirladi  
**Esdan ko‘tarildi** - unutdi  
**Es-hushini yig‘di** – 1)parishonlikdan qutuldi 2)o‘ylab ish tutadigan bo‘ldi  
**Esi bor** – fikr-mulohaza yuritish qobiliyati yaxshi  
**Esi bo’lsa** – fikr-mulohaza yuritish qobiliyati yaxshi  
**Esi chiqib ketdi** – nihoyatda qattiq qo‘rqdi  
**Esi kirdi** - 1)es- hushli bo‘ldi 2) anglati, tushundi  
**Esi ketdi** – 1)qiynalib holsizlandi 2)qayta-qayta mehribonlik, xayrixohlik bildirdi  
**Esi ketib** – berilib, mahliyo bo‘lib  
**Esi past** – fikrlash qobiliyati me’yorda emas, tentak, ovsar  
**Esi og‘di** – 1) telba bo‘ldi, jinni bo‘ldi 2)mahliyo bo‘lib qoldi  
**Esi og‘ib ketdi** – xayoli biror narsa haqidagi o‘y- xotiralar haqida band bo‘ldi  
**Esida qoldi** – xotirasida saqlanib qoldi  
**Esida turdi** – xotirasida saqlanib qoldi  
**Esida tutdi** – doim xotirasida saqladi  
**Esidan chiqdi** – unutdi  
**Esidan og‘di** – telba bo‘ldi, jinni bo‘ldi  
**Esidan ozdi** - jinni bo‘ldi, telba bo‘ldi  
**Esiga keldi** – 1)xotirasida tiklandi 2)o‘yladi, idrok qildi  
**Esiga soldi** – 1)xotirasida tikladi 2)unutilayozganni eslatdi  
**Esiga tushdi** – xotirasida tikladi  
**Esini tanidi** – go‘daklik davridan chiqib, ongli hayot yo‘liga kirdi  
**Esini yedi** - miyasi ishlamay qoldi, fikrlash qobiliyatini yo‘qotdi  
**Eshigiga bosh qo‘ydi** - xokisor bo‘ldi, xokisorlik qildi  
**Etini yedi** - ruhan azoblandi, ezildi  
**Eti suyagiga yopishgan** – haddan tashqari ozg‘in, haddan tashqari qotma  
**Et- etidan o‘tib ketdi** - 1) jismiga chuqur ta’sir qildi 2) ruhiga chuqur ta’sir qildi

-F-

**Fahm(i) yetadi** - idrok qildi, uqli, bildi  
**Fahm-farosat(i) yetadi** - idrok qildi, uqli, bildi  
**Fig‘oni falakka chiqdi** – ruhan ortiq darajada bo‘g‘ilib, oh-voh qildi  
**Fikrga toldi** - uzoq fikrladi  
**Fikridan o‘tkazdi** – ma’lum bir muddat fikrladi  
**Fikrlari bir yerdan chiqdi** - fikr-o‘ylari mos keldi  
**Futur yetdi** – zararli bo‘lib chiqdi  
**Fe’li keng** – tanti  
**Fe’li tor** – ziqna

-G-

**Gap bermaydi** - boshqalarga imkon bermay, nuqul o‘zi gapiradi  
**Gap qaytardi** – 1)javob qildi 2)e’tiroz javobini berdi, aytishdi  
**Gap qistirdi** – biror kishining nutqi davomida shu nutqni bo‘luvchi so‘z-gap ilova qildi  
**Gap qotdi** – 1)suhbatga tortish maqsadida gap aytdi 2)biror kishining nutqi davomida yo‘l - yo‘lakay biror fikrni aytib qoldi  
**Gapidan qaytdi**- ahididan voz kechdi  
**Gap tashladi** – 1)fikrini bilish maqsadida biror gap-so‘z aytdi 2) suhbatga tirtish maqsadida

tegajoqlik bilan gapirdi  
**Gap tegdi** I – gapirishga imkon berildi  
**Gap tegdi** II – tanbeh eshitdi  
**Gapi bir joydan chiqdi** – fikr-o‘ylari mos keldi  
**Gapi o‘tdi** - aytgani inobatga olindi, ma’qullandi  
**Gapiga kirdi** - 1)tingladi 2)aytganini qildi  
**Gapida turdi** – ahdini saqladi  
**Gapni bir joyga qo‘ydi** – o‘zaro bir fikrga keldi  
**Gapini ikkita qilmaslik** - aytgani bajarildi  
**Gardaniga yukladi** – biror ishni bajarishga majbur qildi  
**Gardaniga oldi** - e’tirof qildi, biror holatga rozi bo‘ldi  
**Gardaniga tushdi** - zimmasiga yuklandi  
**Gardanidan soqit qildi** - o‘zini javobgarlikdan xoli qildi  
**«Gah» desa, qo‘liga qo‘nadigan qilib olgan** – juda itoatkor qilib olgan

–G–

**G‘am yedi** – kuyinib qayg‘urdi  
**G‘amini yedi** – 1) g‘amxo‘rlik qildi 2)ilgaridan o‘ylab, hozirlik qilib qo‘ydi  
**G‘ash ko‘ngil** - tashvishli, bezovta, notinch  
**G‘ashi keldi** – asabi qo‘zg‘adi  
**G‘ashiga tegdi** – asabini qo‘zg‘atdi  
**G‘azabga keldi** – achchiqlandi  
**G‘azabi qaynadi** – darg‘azab bo‘ldi  
**G‘azabi keldi** - achchiqlandi  
**G‘azabidan tushdi** - achchiqlanishdan to‘xtadi  
**G‘olib keldi** – yengdi

–H–

**Haddan tashqari** – ortiq darajada, nihoyatda  
**Haddan ziyod** – ortiq darajada, nihoyatda  
**Haddi sig‘di** – talab qila oldi  
**Haddidan oshdi** – o‘ziga ortiqcha erk berdi  
**Hasratidan chang chiqdi** – ortiq darajada norozilik bildirib gapirdi  
**«Hash–pass» deguncha** – juda qisqa muddatda  
**Havasi keldi** – biror narsaga erishish ishtiyoqi uyg‘ondi  
**Hayratda qoldi** – nihoyat darajada ajablanti  
**Hayratda qoldirdi** – nihoyat darajada ajablantirdi  
**Hayron qoldi** – ajablanti  
**Hushi boshidan uchdi** – esankiradi  
**Hushi ketdi** – mahliyo bo‘lib qoldi  
**Hushi o‘ziga keldi** – 1)behushlikdan qaytdi 2)odatdagi sezish, anglash holatiga qaytdi  
**Hushidan ketdi** – behush bo‘ldi  
**Hushiga keldi** – 1)behushlikdan qaytdi 2)odatdagi sezish, anglash holatiga qaytdi  
**Hushini yo‘qotdi** – 1) behush bo‘ldi 2) esankiradi  
**Hushini olib qo‘ydi** - o‘ziga o‘taketgan darajada mahliyo qilib oldi  
**Holdan ketdi** – toliqdi, darmonsizlandi  
**Holdan ketkazdi** – toliqtirdi, darmonsizlantirdi  
**Hordiq oldi** – istirohat qildi

**Ichagi uzildi** I – 1) qotib-qotib kului 2) uzlusiz va qattiq yig‘lab charchadi(chaqaloq)  
**Ichagi uzildi** II – juda-juda ochiqdi  
**Ich-etini yedi** – ruhan azoblandi, ezildi  
**Ichi achidi** – achinib kuyindi  
**Ichi achishdi** – achinib kuyindi  
**Ichi g‘ash** – tashvishli, bezovta, notinch  
**Ichi pishdi** – 1)ruhan bezovta bo‘ldi, dilgir bo‘ldi 2)sabri tugab, ruhan betoqat bo‘ldi  
**Ichi qizidi** – 1)qiziqish uyg‘ondi 2)zerikib siqildi  
**Ichi qora** – yomon niyatli, boshqalarga yaxshilikni ravo ko‘rmaydigan  
**Ichi qoralik qildi** – yomon niyatli ish qildi  
**Ichi toshdi** – 1)biror narsani shoshib bajarish davomida ruhan hovliqib ketdi 2)sabri tugab, ruhan betoqat bo‘ldi  
**Ichiga soldi** – yashirdi, pinhon tutdi  
**Ichiga yutdi** – yashirdi, pinhon tutdi  
**Ichini bir nima tataladi** – yashirin holda ruhan bezovtalandi, tashvishlandi  
**Ichini it tirnadi** – yashirin holda ruhan bezovtalandi, tashvishlandi  
**Ichini mushuk tataladi** – yashirin holda ruhan bezovtalandi, tashvishlandi  
**Ichini qizitdi** - qiziqish uyg‘otdi  
**Ichini kemirdi** – yashirin holda ruhan bezovtalandi  
**Ignadek gapni tuyadek qildi** – mubolag‘a qilib, bo‘rttirib yubordi  
**Ignasidan ipigacha** - butun tafsiloti bilan, mayda-chuydasigach bat afsil  
**Ikki gapning birida** – gap davomida dam-badam, qayta-qayta gapirdi  
**Ikki gapning o‘rtasida** – gap davomida dam-badam, qayta-qayta gapirdi  
**Ikki ko‘zi to‘rt bo‘ldi** - intizor bo‘ldi  
**Ikki bukilgancha** – ortiq darajada egilib  
**Ikki dunyoda** – hech qachon  
**Ikki dunyoda ham** – hech qachon  
**Ikki qo‘llab** – hech qanday e’tirozsiz va xursandlik bilan  
**Ikki qo‘lini og‘ziga tiqdi** – hovliqib, lozim bo‘lganidan ko‘ra ortiqroq narsani ro‘yobga chiqarish uchun intildi  
**Ikki qo‘lini burniga tiqdi** – quruqdan- quruq, evaziga hech narsa ololmay  
**Ikki so‘zning birida** – gap davomida dam-badam, qayta-qayta gapirdi  
**Ikki shingil** – ozgina, andak  
**Ikki ellik** – qisqagina  
**Ikki o‘rtada** – ozgina, andak  
**Ikki og‘iz** – ozgina, andak  
**Ikki-uch og‘iz** – ozgina, andak  
**Ikki oyog‘ini bir etikka suqdi** – o‘z ishining amalga oshishini qaysarlik bilan talab qildi  
**Ikki oyog‘ini bir etikka tiqdi** – juda qiyin ahvolga tushdi  
**Ikki oyog‘ini tirab oldi** – qaysarlik qildi  
**Ilon yog‘ini yegan** – juda ayyor, mug‘ambir, quv  
**Ilon yog‘ini yalagan** – juda ayyor, mug‘ambir, quv  
**Ilon po‘st tashlaydi** – chiday olmaydi, toqat qilib tura olmaydi  
**Ilon po‘st tashlaydigan** – chiday olmaydigan, toqat qilib tura olmaydigan  
**Iltimosini qaytardi** - rad javobini berdi  
**Imoni komil** – mutlaqo ishonadi  
**Ipidan ignasigacha**- butun tafsiloti bilan, mayda- chuydasigach bat afsil

**Istarasi issiq** – xush ko‘rinishli, yoqimli, jozibador  
**Istarasi sovuq** - yoqimsiz, badhazm  
**Ish berdi** – manfaatiga xizmat qildi  
**Ishdan chiqardi** – yaroqsiz holga keldi  
**Ishga soldi** – 1) mehnat qilishga safarbar qildi 2)o‘z maqsadi yo‘lida xizmat qildirdi 3)safarbar qildi, foydalandi 4)ishlata boshladni  
**Ishga tushdi** – 1)mehnat qilishni boshladni 2)ishlay boshladni  
**Ishi bitdi, eshagi loydan o‘tdi** – 1)maqsadi amalga oshgach, aloqa va muomalani yig‘ishtirdi 2)hozirgisi hal bo‘ldi, keyingisi bir gap bo‘lar  
**Ishi tushdi** – biror ish yuzasidan muomalada bo‘ldi, biror masala yuzasidan murojaat qildi  
**Ishqi tushdi** – sevib qoldi  
**Ishongan bog‘i, suyangan tog‘i** - 1)suyanchig‘i, g‘amxo‘ri 2)orqa qiladigani, e’tiqod-ishonch bilan qaraydigani  
**Ishonchi komil** – mutlaqo ishonadi  
**Izga soldi** – chetga chiqishlarni bartaraf qilib, me’yorga keltirdi  
**Izga tushdi** – chetga chiqishlar bartaraf bo‘lib, me’yorga keldi  
**Izidan tushdi** – qayerga borsa, zimdan ta’qib qilib bordi  
**Izidan chiqdi** - rivoji, holati buzildi  
**Iziga qaytdi** – yetib kelgan zamon yana qaytib ketdi  
**Iziga tushdi I** – zimdan yurib butun xatti-harakatini ta’qib qildi  
**Iziga tushdi II** - chetga chiqishlar bartaraf bo‘lib, me’yorga keldi  
**Izmidan chiqdi** – hukmiga itoat qilmadi  
**Izzati nafsga tegdi** – kamsitadigan gap-so‘z, ish qildi  
**Izza tortdi** - izza bo‘di, uyaldi  
**Ixlos qo‘ydi** – e’tiqod bilan qaradi  
**Ixlosi qaytdi** – e’tiqod qilmay qo‘ydi

**-J-**

**Jahli chiqdi** – g‘azablandi  
**Jahldan tushdi** - achchiqlanishdan to‘xtadi  
**Jahlini keltirdi** - achchiqlandi  
**Jahli qistadi** - achchiqlandi  
**Jahonga keldi** - tug‘ildi  
**Jahondan ketdi** – qazo qildi, o‘ldi  
**Jahondan o‘tdi** - yashab o‘tdi  
**Jar soldi** – 1)jarchi vositasida eshittirildi 2)keragidan ortiq darajada bo‘rttirib xabar tarqatdi  
**Javob berdi** –1)javobli ish tutdi 2)qondirdi 3)javobgarlikni o‘z ustiga oldi 4) «ketish»ga ruxsat berdi  
**Javobini berdi I** -1)javobli ish tutdi 2)qondirdi 3)javobgarlikni o‘z ustiga oldi 4) «ketish»ga ruxsat berdi  
**Javobini berdi II** – 1) haydab yubordi 2) er-xotinlik holatini bekor qilishga rozilik berdi  
**Jazosini berdi** – qilmishiga yarasha jazoladi  
**Jig‘iga tegdi** – asabini qo‘zg‘atib o‘chakishtirdi  
**Jigaridan urdi** – o‘ziga shaydo qildi  
**Jigar- bag‘ridan urdi** – o‘ziga shaydo qildi  
**Jigar bag‘ri xun bo‘ldi** – 1)ziq bo‘ldi 2)ruhan azoblandi  
**Jiniga yoqmaydi** – ta’biga to‘g‘ri kelmaydi  
**Jini suymaydi, jini sevmaydi** – ta’biga to‘g‘ri kelmaydi

**Joyiga keltirdi** – o‘rinlatdi  
**Joyiga qo‘ydi** – bajardi, o‘rinlatdi  
**Jon kirdi** – yayradi, rohatlandi  
**Jon berdi** – o‘ldi  
**Jon berildi** - barhayot qilindi  
**Jon bermaslik** - taslim bo‘lmaslik, o‘zini yengilgan deb hisoblamaslik  
**Jon berib, jon oldi** – taslim bo‘lmadi, o‘zini yengilgan deb hisoblamadi  
**Jon bor** – asosga ega, zamirida haqiqat bor, bejiz emas  
**Jon deb** – mammuniyat bilan  
**Jon dedi** – xursand bo‘ldi  
**Jon koshki edi** - xursand bo‘lar edim-a!  
**Jon kirdi** – 1)tetiklashdi, jonlandi 2)hayotga qaytdi, tirildi  
**Jon olib, jon berdi** – o‘z jonini ham ayamasdan og‘ir va mashaqqatli kurash olib bordi  
**Jon tikdi** - butun kuch va imkoniyati, hatto hayotini bag‘ishladi  
**Jon oluvchi** - 1)o‘ldiruvchi 2)ruhan juda qattiq ezib yuboruvchi  
**Jon holatda** - qo‘rqqani holda va shiddat bilan  
**Jon-jonidan o‘tib ketdi** – 1) jismiga chuqur ta’sir qildi 2) ruhiga chuqur ta’sir qildi  
**Joni bor** – hali tirik  
**Joni chiqди I** – o‘ldi, so‘nggi marta nafas chiqardi  
**Joni chiqди II** – nihoyatda qattiq g‘azablandi, darg‘azab bo‘ldi  
**Joni chiqди III** – nihoyatda qattiq qo‘rqdi  
**Joni bo‘g‘ziga keldi** - 1) o‘lar holatga yetdi 2) chidami tugab, yashashdan ham bezor bo‘lib ketdi  
**Joni tomog‘iga keldi** - 1) o‘lar holatga yetdi 2) chidami tugab, yashashdan ham bezor bo‘lib ketdi  
**Joni halqumiga keldi** – 1) o‘lar holatga yetdi 2) chidami tugab, yashashdan ham bezor bo‘lib ketdi 3) nihoyatda qattiq qo‘rqdi  
**Joni hilqildog‘ga keldi** – 1) o‘lar holatga yetdi 2) chidami tugab, yashashdan ham bezor bo‘lib ketdi 3) nihoyatda qattiq qo‘rqdi  
**Joni kuydi** – ruhan kuchli bezovtalangani holda g‘amxo‘r bo‘ldi  
**Joni uzildi** - o‘ldi, so‘nggi marta nafas chiqardi  
**Jonini kuydirib** - mashaqqatni o‘z oldiga olgan holda, tirishib  
**Joni achiydi** - 1)ayab kuyindi 2)achinib kuyindi  
**Jonidan bezor bo‘ldi** – ortiq toqat qilolmasligi tufayli o‘limiga ham rozi bo‘ldi  
**Jonidan umidini uzdi** – o‘lishga iqror bo‘ldi  
**Jonidan to‘ydi** – 1)yashashni istamadi 2)ortiq toqat qilolmasligi tufayli o‘limiga ham rozi bo‘ldi  
**Joniga oro kirdi** – 1)bir o‘limdan qutqarib qoldi 2)og‘ir ahvoldan qutqardi  
**Joniga aro kirdi** – 1)bir o‘limdan qutqarib qoldi 2)og‘ir ahvoldan qutqardi  
**Jon- joniga tegdi** – o‘ta darajada bezor qildi  
**Joniga tegdi** – 1)bezor qildi 2)bezor bo‘lib zerikdi  
**Jonini berdi** – har qanday og‘ir shartni, talabni bajarishga tayyor bo‘ldi  
**Joni holiga qo‘ymaslik** - 1)tinchlik bermaslik 2)xohishiga zid holda majbur qilish  
**Jonini fido qildi** – o‘zini qurban qilishga ham tayyor bo‘ldi  
**Jonini ham ayamadi** – 1) biror maqsad yo‘lida o‘lishga ham tayyor bo‘ldi 2) bisotida bor hamma narsasini berishga tayyor bo‘ldi  
**Jonini jabborga berdi** – bor kuchini safarbar qildi  
**Jonini tikdi** – butun kuch va imkoniyati, hatto hayotini bag‘ishladi  
**Jonini hovuchlab** - biror falokatning voqe bo‘lishidan benihoya qo‘rqqan holda  
**Jonini kaftiga olib** - biror falokatning voqe bo‘lishidan benihoya qo‘rqqan holda

**Jonini chiqardi** - nihoyatda qattiq g'azablandi, darg'azab bo'ldi  
**Jonini oldi** – 1)o'ldirdi 2)ruhan juda qattiq ezib yubordi 3) jismonan juda qattiq ezib yubordi  
**Jonining boricha** – kuch -quvvati yetganicha, tirishib  
**Jon-jonidan o'tib ketdi** – 1)jismonan va alamli ta'sir qildi, qaqshatdi  
2)ruhan alamli ta'sir qildi  
**Jon-poni chiqib ketdi** – nihoyatda qattiq qo'rqi  
**Jon-u holiga qo'ymaydi** – tinchlik bermaydi

-K-

**Kalavasining uchini topdi** – jumboqni hal qilish yo'lini topdi  
**Kalavasining uchini yo'qotdi** – qilib turgan ishini bilmay qoldi, gangidi  
**Katta gap** – 1)diqqatga sazovor, arzilik 2)qanoatlanishga etarli, kifoya  
**Katta gapirdi** – imkoniyatiga ortiqcha baho berdi  
**Katta og'iz** - 1)soxta kibr-havoli, maqtanishni yaxshi ko'radigan 2)imtiyozli mavqega ega(kinoya)  
**Katta ketdi** – imkoniyatiga ortiqcha baho berdi  
**Kavushini to'g'irlab qo'ydi** – haydab yubordi  
**Kayfi chog'** – kayfiyati yaxshi  
**Kayfi buzuq** – kayfiyati yomon, xafa  
**Kayfiyati buzildi** – kayfiyati yomonlashib, xafa bo'ldi  
**Kayfi chog'lik qildi** – xursandchilik qildi, dilxushlik qildi  
**Kayfi xush bo'ldi** – xursandchilik qildi, dilxushlik qildi  
**Kayfi uchdi** – qattiq cho'chish bilan qo'rqi  
**Kapalagi uchdi** – qattiq cho'chish bilan qo'rqi  
**Kampiragini uchirdi** - qattiq cho'chish bilan qo'rqi  
**Kallasi g'ovlab ketdi** - o'ylayverib gangidi  
**Ko'kka sovurdi I** – behuda sarfladi  
**Ko'kka sovurdi II** – butunlay yemirilib yo'q bo'ldi  
**Ko'kka ko'tardi** – ortiq darajada maqtadi  
**Ko'klarga ko'tarib** – ortiq darajada, benihoya  
**Ko'kragi tog'day ko'tarildi** – xursand bo'lib, benihoya ruhlandi  
**Ko'ksi ko'tarildi** - xursand bo'lib, benihoya ruhlandi  
**Ko'kragiga urdi** – chapanichasiga pisanda qildi  
**Ko'ngil berdi** – sevdi, oshiq (ma'shuq) bo'ldi  
**Ko'ngil bog'ladi** – sevish hissiga erk berdi  
**Ko'ngil qo'ydi** – sevdi  
**Ko'ngil ochdi I** – xursandchilik qildi  
**Ko'ngli so'radi** – boshiga xafachilik, musibat tushgan kishiga hamdardlik bildirib hol – ahvolini so'radi  
**Ko'ngli aynidi** – 1)tanasi qabul qilmagani tufayli behuzur bo'ldi 2) tabiatiga yoqmagani tufayli ijirg'andi  
**Ko'ngli bo'shadi I** – ruhiy kechinmalar ta'sirida yig'lab yuborish holatiga yetdi  
**Ko'ngli bo'shadi II** – xo'rligi keldi  
**Ko'ngli bo'sh** – ko'ngilchan, rahmdil  
**Ko'ngli bo'shashdi** – ruhiy kechinmalar ta'sirida yig'lab yuborish holatiga yetdi  
**Ko'ngli bor** – moyil, xayrixoh, sevadi  
**Ko'ngli bormadi** - hohlamadi  
**Ko'ngli cho'kdi** – ruhsizlandi

**Ko'ngli g'ash** – tashvishli , bezovta , notinch  
**Ko'ngli g'ash bo'ldi** – tashvish qildi  
**Ko'ngli g'ash tortdi** – bir oz tashvish qildi  
**Ko'ngli g'ashga to'ldi** – qattiq tashvishda bo'ldi  
**Ko'ngli joyiga tushdi** – xotirjam bo'ldi, tinchlandi  
**Ko'ngli ko'tarmaydi** – 1)yana eb-icha olmaydi 2)yoqtirmaydi  
**Ko'ngli keng** – oliyhimmat, saxovatli  
**Ko'ngli o'ksidi** – ma'yuslandi, o'ksindi  
**Ko'ngli o'sdi** – ruhlandi  
**Ko'ngli o'rniga tushdi** – xotirjam bo'ldi, tinchlandi  
**Ko'ngli ko'tarildi** – ruhlandi  
**Ko'ngli qattiq** – rahm-shafqati yo'q  
**Ko'ngli qoldi** – avvalgi yaxshi munosabati o'rniga xush ko'rmaslik hissi uyg'ondi  
**Ko'ngli qora** – yomon niyatli, boshqalarga yaxshilikni ravo ko'rmaydigan  
**Ko'ngli sovidi** – avvalgi yaxshi munosabati yo'q bo'ldi  
**Ko'ngli to'ldi** – 1)mamnun bo'ldi 2)qanoat hosil qildi, tinchidi  
**Ko'ngli to'q** – o'ta xotirjam  
**Ko'ngli tortdi** – yoqtirdi  
**Ko'ngli toza** – yaxshi niyatli, boshqalarga yomonlikni ravo ko'rmaydigan  
**Ko'ngli tog'day ko'tarildi** – xursand bo'lib, benihoya ruhlandi  
**Ko'ngli yorishdi** – ko'nglidagi g'ashlik tarqadi  
**Ko'ngli yo'q** – istamaydi  
**Ko'ngli yumshadi** – rahmdilligi uyg'ondi  
**Ko'ngli yumshoq** – ko'ngilchan, rahmdil  
**Ko'ngli og'ridi** – ranjidi  
**Ko'ngli ochiq** - yaxshi niyatli, boshqalarga yomonlikni ravo ko'rmaydigan  
**Ko'ngli oq** – yaxshi niyatli, boshqalarga yomonlikni ravo ko'rmaydigan  
**Ko'ngli ozdi** – 1)behush bo'ldi 2) tanasi qabul qilmagani tufayli behuzur bo'ldi  
**Ko'ngli pok** - yaxshi niyatli, boshqalarga yomonlikni ravo ko'rmaydigan  
**Ko'ngli topilsa** – istak-xohishiga mos tushadigan harakatlar qilish bilan o'ziga moyil qilsa  
**Ko'ngli xira** – tashvishli, bezovta, notinch  
**Ko'ngli xiralashdi** – biroz tashvish qildi  
**Ko'ngli xira bo'ldi** – tashvish qildi  
**Ko'nglida kiri yo'q** – kek saqlamaydigan, g'arazi yo'q  
**Ko'nglidan o'tdi** – ma'lum bir muddat fikrladi  
**Ko'nglidan kechirdi** – ma'lum bir muddat fikrladi  
**Ko'nglidan chiqardi** – 1)butkul unutib yubordi, o'ylamay, eslamay qo'ydi 2)ko'nglidagi g'uborni tarqatdi 3)o'z roziligi bilan berishni ma'qul ko'rdi  
**Ko'ngliga vahima soldi** - kuchli darajada qo'rqish hissini uyg'otdi  
**Ko'ngliga g'ashlik soldi** – tashvish qilishiga sabab bo'ldi, tashvishli holatga qo'ydi  
**Ko'ngliga g'ashlik tushdi** – o'z -o'zicha tashvish qildi  
**Ko'ngliga g'ashlik tushgan** – 1)qiziqishi yo'qoldi, zeriktirdi  
2)jirkanish hissini uyg'otdi, bezdirdi  
**Ko'ngliga keldi** – 1)o'zicha o'yladi 2) biror munosabat bilan aytilgan gapni yoki qilingan harakatni og'rinib qabul qildi 3)hohladi  
**Ko'ngliga qo'l soldi** – eng yashirin fikr-o'yini bilishga harakat qildi  
**Ko'ngliga sig'maslik** – diqqatlik, xafalik tufayli mashg'ul bo'lolmaslik  
**Ko'ngliga tugdi** – 1)o'rni kelganda aytishni mo'ljallab qo'ydi 2)ahd qildi 3)fikran belgilab qo'ydi 4) unutmay ichda saqladi

**Ko‘ngliga tegdi** – 1)yoqmay qoldi, tanasi qabul qilmay qo‘ydi 2)yoqtirmaslik hissi uyg‘ondi  
**Ko‘ngliga urdi** - 1)qiziqishi yo‘qoldi 2)jirkanish hissini uyg‘otdi, bezdirdi  
**Ko‘ngliga vahima tushdi** – kuchli darajada qo‘rqish hissi uyg‘ondi  
**Ko‘nglini bo‘lmaslik** – har xil o‘y-xayollarga borib, o‘zini o‘zi xafa qilmaslik  
**Ko‘nglini buzmaslik** – har xil o‘y-xayollarga borib, o‘zini o‘zi xafa qilmaslik  
**Ko‘nglini joyiga tushirdi** – xotirjam bo‘ldi, tinchlandi  
**Ko‘nglini g‘ashladi** – tashvish qildirdi  
**Ko‘nglini ko‘tardi** – ruhlantirdi  
**Ko‘nglini so‘radi** – boshiga xafachilik, musibat tushgan kishiga hamdardlik bildirib hol-ahvolini so‘radi  
**Ko‘nglini tog‘day ko‘tardi** – xursand qilib benihoya ruhlantirdi  
**Ko‘nglini topdi** – istak -xohishiga mos tushadigan harakatlar qilish bilan o‘ziga moyil qildi  
**Ko‘nglini to‘q tutdi** – o‘ta xotirjam bo‘ldi  
**Ko‘nglini to‘q qildi** – o‘ta xotirjam bo‘ldi  
**Ko‘nglini uzdi** – yuragiga yaqin, intilgan kishisidan yoki narsasidan ajralishga qaror qildi  
**Ko‘nglini yozdi** – xafachiligini tarqatdi  
**Ko‘nglini yorishtirdi** – ko‘nglidagi g‘ashlikni tarqatdi  
**Ko‘nglini yordi**–ichidagi istak yoki dardini aytди  
**Ko‘nglini ochdi I** – xafachiligini tarqatib, xursand qildi  
**Ko‘nglini ochdi II** - ichidagi istak yoki dardini aytди  
**Ko‘nglini og‘ritdi** – ranjitdi  
**Ko‘nglini oldi** – xursand qilish bilan o‘ziga  
**Ko‘nglini ovlatdi** – o‘ziga moyil qilish uchun intildi  
**Ko‘nglini sovitdi** – avvalgi yaxshi munosabati yo‘q bo‘ldi  
**Ko‘nglini so‘radi** – boshiga xafachilik, musibat tushgan kishiga hamdardlik bildirib hol – ahvolini so‘radi  
**Ko‘nglini xira qildi** – bezovta, notinch bo‘ldi  
**Ko‘nglini cho‘ktirdi** – ruhsizlantirdi  
**Ko‘nglini ezdi** – ruhan azoblandi  
**Ko‘nglini yumshatdi** – rahmdilligi uyg‘otdi  
**Ko‘nglini o‘stirdi** – ruhlantirdi  
**Ko‘nglini qoldirdi** – avvalgi yaxshi munosabati o‘rniga xush ko‘rmaslik hissi uyg‘otdi  
**Ko‘nglini qora qildi** – juda xafa qildi  
**Ko‘nglining bir chekkasi xira** – tashvishli, bezovta, notinch  
**Ko‘nglining bir chekkasi g‘ash** – tashvishli, bezovta, notinch  
**Ko‘nglining bo‘shligi** – ko‘ngilchan, rahmdil ekanligi  
**Ko‘nglida kiri yo‘q** – kek saqlamaydigan, g‘arazi yo‘q  
**Ko‘rgani ko‘zi, otgani o‘qi yo‘q** – o‘taketgan darajada yomon ko‘rdi  
**Ko‘rarga ko‘zi yo‘q** – o‘taketgan darajada yomon ko‘rdi  
**Ko‘rgani ko‘zi yo‘q** – o‘taketgan darajada yomon ko‘rdi  
**Ko‘rpasiga qarab oyoq uzatdi** – imkoniyatini hisobga olib ish tutdi  
**Ko‘rsatib qo‘yaman** - qo‘rquitish  
**Ko‘z bo‘yadi** – aldadi, laqillatdi  
**Ko‘z ilg‘amaydi** – poyoni ko‘rinmaydi  
**Ko‘z ilg‘amas I** – bilinar-bilinmas, mayda  
**Ko‘z ilg‘amas II** – cheksiz, poyoni ko‘rinmaydigan  
**Ko‘z ilindi** – mizg‘idi, uxbay boshladi  
**Ko‘z suzdi** – noz-karashma bilan qaradi  
**Ko‘z tikdi** – 1) tikilib qaradi 2) umidvor bo‘lib qaradi

**Ko'z tegdi** – ko'zikdi  
**Ko'z tutdi** – kelib qolar degan umidda kutdi  
**Ko'z tagiga oldi** – biror maqsad bilan ko'zlab qo'ydi  
**Ko'z tagidan** – yashiriqcha, sezdirmay  
**Ko'z tashladi** – qisqa muddat qaradi  
**Ko'z o'ngida** – 1)bevosita ko'ringan, kuzatilgan holda 2) tasavvurida saqlagan  
**Ko'z o'ngiga keldi** – tasavvurida gavdalandi  
**Ko'z urishtirdi** – ko'z qarashlari bir daqiqa duch keldi  
**Ko'z ochib yumguncha** – juda qisqa muddatda, tezda  
**Ko'z ochirmaslik** – biror narsani betiga solib yoki qattiq talab qilib tinchlik bermaslik, qattiq, siquvga oldi  
**Ko'z ochgani qo'ymaslik** – biror narsani betiga solib yoki qattiq talab qilib tinchlik bermaslik, qattiq siquvga oldi  
**Ko'z ochib ko'rgan** – birinchi nikohiga olgan  
**Ko'z olaytirdi** – 1) o'qraydi 2)o'z manfaatiga bo'ysundirish niyatida bo'ldi  
**Ko'z oldidan o'tdi** – tasavvurida ketma-ket gavdalandi  
**Ko'z oldiga keldi** – tasavvurida gavdalandi  
**Ko'z ostiga oldi** – biror maqsad bilan ko'zlab qo'ydi  
**Ko'z ostidan** – yashiriqcha, sezdirmay  
**Ko'z olmaslik** - qarashni to'xtatmaslik  
**Ko'z qorachig'i** - yakka-yu yagona va qadr-qiymati beqiyos yuksak  
**Ko'z qirini tashladi** – tez va sezilar- sezilmas qaradi  
**Ko'z yogurtirdi** – tez va yuzaki qaradi  
**Ko'zda tutdi** – fikran hisobga oldi  
**Ko'zdan kechirdi** – qarab chiqdi, birma-bir ko'rdi, sinchiklab tanishdi  
**Ko'zdan o'tkazdi** - qarab chiqdi, birma-bir ko'rdi, sinchiklab tanishdi  
**Ko'zdan qochirmaslik** – doim kuzatib turdi  
**Ko'zga chalindi** – bir marta noaniq holda ko'rindi  
**Ko'zga ko'rindi** – 1) tanildi 2) o'ziga diqqat-e'tiborni jalb qiladigan bo'ldi  
**Ko'ziga issiq ko'rindi** – 1) tanishdek tuyuldi 2)o'ziga tortdi, yoqimli tuyuldi  
**Ko'ziga ko'rinish ketdi** – birdaniga xotirasida gavdalandi  
**Ko'ziga oq-qora ko'rinmaydi** - 1)tatimaslik, e'tiborini tortmaslik 2)hisoblashmaslik, o'ylab-netib o'tirmaslik  
**Ko'ziga sovuq ko'rindi** – yoqmaslik, jirkanish hissini uyg'otmoq  
**Ko'ziga cho'p soldi** – aldadi, chalg'itdi  
**Ko'ziga o'tday ko'rindi** - 1) tanishdek tuyuldi 2)o'ziga tortdi, yoqimli tuyuldi  
**Ko'zga tashlandi** – 1)ro'y-rost, aniq ko'rindi 2)aniq ajralib, sezilib turdi  
**Ko'ziga ko'rinaslik I** – ro'para bo'lmaslik, duch kelmaslikka harakat qilish  
**Ko'ziga ko'rinaslik II** – 1)tatimaslik, e'tiborini tortmaslik 2)hisoblashmaslik, o'ylab- netib o'tirmaslik  
**Ko'zga ko'rinaslik I** – 1) tanilmaslik 2) o'ziga jalb qiladigan bo'lmaslik  
**Ko'zga ko'rinaslik II** – 1)tatimaslik, e'tiborini tortmaslik 2)hisoblashmaslik, o'ylab- netib o'tirmaslik  
**Ko'zga ko'rinarmedi?!** - 1)tatimaslik, e'tiborini tortmaslik 2)hisoblashmaslik, o'ylab-netib o'tirmaslik  
**Ko'zi qamashdi** – 1) nur aks etib, ko'zi hech narsani ko'rmaydi 2)go'zalligiga mahliyo bo'ldi  
**Ko'zi yetdi** – ishondi, ishonch hosil qildi  
**Ko'zi ilg'amaydi** – kichik, sezilar-sezilmas bo'lgani uchun ko'ra olmaslik  
**Ko'zi ilindi** – mizg'idi, uxlay boshladi

**Ko‘zi ola-kula bo‘lib ketdi** – olayib qaradi  
**Ko‘zi ko‘r, qulog‘i kar** – hech narsadan bexabar  
**Ko‘zi ko‘r, qulog‘i kar bo‘ldi** – hech narsani ko‘rmaydigan, eshitmaydigan bo‘ldi  
**Ko‘zi ko‘ziga tushdi** – ko‘z qarashlari bir daqiqa duch keldi  
**Ko‘zi ketdi** – uxmlay boshladи  
**Ko‘zi moshdek ochildi** – jazo olib, hushyor qildi  
**Ko‘zi o‘tmaydi** – nuri ketib, ko‘zi kamquvvat bo‘lib qoldi  
**Ko‘zi o‘ynadi** – ko‘z-ko‘z qilganligi tufayli havasi keldi  
**Ko‘zi pishidi** – anchagina o‘rganib, tajribasi ortdi  
**Ko‘zi qinidan chiqib ketayozdi** – 1)g‘azabi qo‘zib, asabiylashdi  
 2) g‘ayrati ko‘zida aks etib, ko‘zi chaqchaydi  
**Ko‘zi kosasidan chiqib ketayozdi** – 1)g‘azabi qo‘zib, asabiylashdi  
 2) g‘ayrati ko‘zida aks etib, ko‘zi chaqchaydi  
**Ko‘zi qiymadi** – 1)ko‘ngilchanlik tufayli botinolmaslik 2)rahmdillik bilan ayagani tufayli tashlab ketolmaslik 3) ko‘ngil tortar narsasidan voz kecha olmaslik  
**Ko‘zi qiyib** – 1)ko‘ngilchanlik tufayli botinolmaslik 2)rahmdillik bilan ayagani tufayli tashlab ketolmaslik 3) ko‘ngil tortar narsasidan voz kecha olmaslik  
**Ko‘zi qiysa** – 1)ko‘ngilchanlik tufayli botinolmaslik 2)rahmdillik bilan ayagani tufayli tashlab ketolmaslik 3) ko‘ngil tortar narsasidan voz kecha olmaslik  
**Ko‘zi qiyadi?!** – 1)ko‘ngilchanlik tufayli botinolmaslik 2)rahmdillik bilan ayagani tufayli tashlab ketolmaslik 3) ko‘ngil tortar narsasidan voz kecha olmaslik  
**Ko‘zi qiyarda-qiyimay** – 1)ko‘ngilchanlik tufayli botinolmaslik 2)rahmdillik bilan ayagani tufayli tashlab ketolmaslik 3) ko‘ngil tortar narsasidan voz kecha olmaslik  
**Ko‘zi tindi** – 1)holsizlanish natijasida ko‘z oldi xiralashdi 2)ko‘p va mayda narsaga tikilib, ko‘z oldi xiralashdi  
**Ko‘zi tirik** – barhayot  
**Ko‘zi to‘rt bo‘ldi** – intizor bo‘ldi  
**Ko‘zi tushdi** – bexosdan, kutilmaganda ko‘rdi  
**Ko‘zi tor** – qizg‘anchiq  
**Ko‘zi uchib turibdimi?!** – ko‘rish ishtiyoyqidami? (kesatiq bilan)  
**Ko‘zi chig‘anog‘idan chiqib ketayozdi** – 1)g‘azabi qo‘zib, asabiylashdi  
 2) g‘ayrati ko‘zida aks etib, ko‘zi chaqchaydi  
**Ko‘zi xonasidan chiqay dedi** – 1)g‘azabi qo‘zib, asabiylashdi  
 2) g‘ayrati ko‘zida aks etib, ko‘zi chaqchaydi  
**Ko‘zi yordi** – tug‘di  
**Ko‘zi yumildi** – qazo qildi, o‘ldi  
**Ko‘zi ochiq I** – barhayot  
**Ko‘zi ochiq II** – yaxshini yomondan, foydani zarardan farqlashga qobiliyatli  
**Ko‘zi ochildi** – yaxshi-yomonni tushunadigan bo‘ldi  
**Ko‘zi ola-kula bo‘lib ketdi** – olayib qaradi  
**Ko‘zilari chanog‘idan chiqar bo‘ldi** – 1)g‘azabi qo‘zib, asabiylashdi  
 2) hayrati ko‘zida aks etib, ko‘zi chaqchaydi  
**Ko‘zini bildi** – ustalik bilan bajara oldi  
**Ko‘zini bo‘yadi** – aldadi, laqillatdi  
**Ko‘zini chirt yumib** – tavakkal qilib  
**Ko‘zini shira bosdi** – takabburlandi, tanib tanimaganga oldi  
**Ko‘zini uzmay** – muttasil (qaradi)  
**Ko‘zini uzmaslik** – muttasil qarash  
**Ko‘zini o‘ynatdi** – ko‘z-ko‘z qilganligi tufayli havasi keldi

**Ko‘zini yog‘ bosdi** – takabburlandi, tanib tanimaganga oldi  
**Ko‘zini ochdi** – hushyor qildi, yaxshi-yomonni tushunadigan qildi  
**Ko‘zini oldi** – qarashni to‘xtatdi  
**Ko‘zini olmaslik** – qarashni to‘xtatmaslik  
**Ko‘zining paxtasi chiqdi** – g‘azabi ko‘zida aks etib, ko‘zi chaqchaydi  
**Ko‘zini pishitdi** – anchagina o‘rganib, tajribasini orttirdi  
**Ko‘zini tikdi** – 1) tikilib qaradi 2) umidvor bo‘lib qaradi  
**Ko‘zini to‘rt qildi** – intizor  
**Ko‘zini yogurtirdi** – tez va yuzaki qaradi  
**Ko‘zini qamashtirdi** – 1) nur aks etib, ko‘zi hech narsani ko‘rmaydigan bo‘ldi 2)go‘zalligiga mahliyo bo‘ldi  
**Ko‘zining yog‘ini yedi** – o‘zini kimgadir yaqin ko‘rsatib, uning xayrixohligidan o‘z manfaati yo‘lida foydalandi  
**Ko‘zining oqu qorasи** – yakka-yu yagona va qadr-qiyomi biqiyos yuksak  
**Ko‘zning oldiga keldi** – tasavvurida gavdalandi  
**Ko‘zining ochiqligida** – barhayotligida  
**Ko‘zining tirikligida** – barhayotligida  
**Ko‘zining qirini tashladi** – tez va sezilar- sezilmas qaradi  
**Ko‘zining qorachig‘i** - yakka-yu yagona va qadr-qiyomi beqiyos yuksak  
**Ko‘zining paxtasi chiqib ketayozdi** – 1)g‘azabi qo‘zib, asabiylashdi  
2) g‘ayrati ko‘zida aks etib, ko‘zi chaqchaydi  
**Ko‘zni yumdi** – qazo qildi , o‘ldi  
**Kuli ko‘kka sovrildi** – butunlay yemirildi, yo‘q bo‘ldi  
**Kun o‘tkazdi** – 1)vaqt o‘tkazdi 2)tirikchilik qildi  
**Kun bermaslik** – chiqishtirmaslik, ta’bini xira qiladigan, osoyishtaligini buzadigan harakatlar qildi  
**Kun ko‘rdi**– tirikchilik qildi, tirikchilik o‘tkazdi  
**Kun yo‘q** – tinchlik bermaslik, tinch hayot kechirishga yo‘l qo‘ymaslik  
**Kuni bitdi** – o‘ladigan vaqt keldi  
**Kuni tugadi** – o‘ladigan vaqt keldi  
**Kunini ko‘radi** – tirikchilik qiladi, tirikchilik o‘tkazadi  
**Kunini o‘tkazdi** – 1)vaqtini o‘tkazdi 2)tirikchiligini qildi  
**Kunni kechirdi** - 1)vaqt o‘tkazdi 2)tirikchilik qildi  
**Kuniga qoldi** – 1) biror ishni bajarishda qaram bo‘ldi 2)foydalanishga majbur bo‘ldi  
**Kurakda turmaydigan** – aytib bo‘lmash darajada nomunosib  
**Kekirdagini cho‘zdi** – 1)shovqin solib, dabdabali qilib gapirdi 2) o‘dag‘ayladı  
**Kesak otdi** - yomonlik xatti-harakatlari qildi  
**Ketiga tushdi** – 1)zimdan yurib butun xatti-harakatlarini ta’qib qildi 2) manfaatdor bo‘lgani holda berilib harakat qildi  
**Ketidan tushdi** - qayerga borsa, zimdan ta’qibqilib bordi  
**Kechani kecha, kunduzni kunduz demay** –vaqt tanlamay, sutkaning istalgan vaqtida  
**Kechirmoq** - 1)o‘z hayotida ko‘rdi 2)ma’lum bir muddat fikrladi  
**Kim biladi** – aniq aytib bo‘lmaydi  
**Kim bilsin** – aniq aytib bo‘lmaydi  
**Kim biladi deysiz** - aniq aytib bo‘lmaydi  
**Kim qo‘yibdi??!** – lozim emas, loyiq emas  
**Kindigi kesilgan** – tug‘ilgan  
**Kindik qoni to‘kilgan** – tug‘ilgan  
**Kiprik qoqmaslik** - sira uxlamaslik

## **Komil ishonch bilan – mutlaqo amin bo‘lgan holda**

**-L-**

**Labi labiga tegmaydi** – juda tez va ko‘p gapiradi

**Labiga uchuq toshdi** – qattiq qo‘rqish bilan cho‘chidi

**Labini tishladi** – kutilmagan hodisaga duch kelib, nima deyishini bilmay qoldi

**Lafzidan qaytdi** – ahididan voz kechdi

**Lafzida turdi** – ahidini saqladi

**Laqqa tushdi** – osongina aldandi

**«Lom» demaslik** – hech narsa demaslik, e’tiroz qilmaslik

**«Lom-mim» demaslik** – hech narsa demaslik, e’tiroz qilmaslik

**«Lom-mim» deb** – hech narsa demaslik, e’tiroz qilmaslik

**«Lom-mim» demay I** – hech narsa demaslik, e’tiroz qilmaslik

**«Lom-mim» demay II** – e’tiroz qilmay, qarshilik qilmay

**«Lom-mim» demaslik** – hech narsa demaslik, e’tiroz qilmaslik

**«Lom»-u «mim» demay** – hech narsa demaslik, e’tiroz qilmaslik

**Luqma tashladi** – biror kishining nutqi davomida shu nutqni bo‘luvchi so‘z- gap ilova qildi

**-M-**

**Ma’lumot berdi I** – boshqalarni ham xabardor qilish maqsadida so‘zлади

**Ma’lumot berdi II** – yuqori organlarga shikoyat tarzida xabar yubordi

**Ma’qul ko‘rdi** – ma’qul, durust deb bildi

**Ma’qul tushdi** – yoqdi

**Ma’qul topdi** – to‘g‘ri deb hukm chiqardi

**Malol keldi** – ortiqcha bir narsadek qabul qildi, og‘ir tuyuldi

**Mana man deb** – o‘zini o‘zi ko‘rsatib

**Man-man degan** – eng oldingi, eng yuqori, o‘ziga yuksak baho beradigan

**Mayda gap** – bo‘lar-bo‘lmas gaplarni dastak qilib gapirib yuruvchi odam

**Mazasi ketdi I** – sog‘ligi yomonlashdi

**Mazasi ketdi II** – biror ishi yomonlashib, inqirozga yuz tutdi

**Mazasi qochdi I** – sog‘ligi yomonlashdi

**Mazasi qochdi II** – biror ishi yomonlashdi, inqirozga yuz tutdi

**Mazasi yo‘q I** – sog‘ligi yomon holatda

**Mazasi yo‘q II** – harakati, layoqati sust

**Mijja qoqdi** – mizg‘idi

**Mijja qoqmadi** – sira uxlamadi

**Miridan sirigacha** – butun tafsiloti bilan, mayda-chuydasigacha, batafsil

**Misi chiqdi** – soxtaligi, yolg‘onligi fosh bo‘ldi

**Miyasi aynidi** – fikrlash qobiliyatini yo‘qotdi

**Miyasini achitdi** – me‘yoriy fikrlash qobiliyatini yo‘qotdi

**Miyasi g‘ovlab ketdi** – o‘ylayverib gangidi

**Miyasiga keldi** – o‘yladi, idrok qildi, fahmladi

**Miyasida danak chaqdi** – ortiq darajada azobladi

**Miyasidan kechdi** – 1)o‘z hayotida ko‘rdi 2)ma’lum bir muddat fikrladi

**Miyasidan o‘tdi** – 1)o‘z hayotida ko‘rdi 2)ma’lum bir muddat fikrladi

**Miyasini yedi** – miyasi ishlamay qoldi, fikrlash qobiliyatini yo‘qotdi

**Miyasini qotirdi** – astoydil o‘yladi, chuqur fikrladi

**Miyasi qotdi** - o‘ylayverib gangidi  
**Miyasini qoqib, qo‘liga berdi** – so‘rayverib miyasini charchatdi, sergapligi bilan bezdirdi  
**Muhabbat qo‘ydi** – sevish hissiga erk berdi  
**Mukkasidan ketdi** – o‘zini tiya olmaslik darajasida berilib ketdi  
**Mum tishladi** – mutlaqo gapirmadi, suhbatda mutlaqo qatnashmadi  
**Mushugini «pisht» demaydi** - hech qanday ozor etkazmaydi  
**Me‘dasiga tegdi** – yoqmay qoldi, tanasi qabul qilmay qo‘ydi  
**Mehr qo‘ydi** – butun hissiyoti bilan suydi  
**Mehri tushdi** – suyib qoldi  
**Mehri tosh** – bemehr, iltifoti yo‘q  
**Mos keldi** – muvofiq bo‘ldi, mos bo‘ldi  
**Moy tomsa – yalaguday** - benihoya darajada toza

-N-

**Nafasi ichiga tushib ketdi** – qo‘rquv aralash hech narsa deyolmay lol bo‘lib qoldi  
**Nafasi chiqmadi** – hech narsa demadi, indamadi  
**Nafasi chiqarmaslik** – hech narsa demadi, indamadi  
**Nafasi kesildi** – gapirtirmadi  
**Nafasini ichiga oldi** – hech qanday tovush chiqarmaydi  
**Nafasini ichiga yutdi** – hech qanday tovush chiqarmaydi  
**Nari borib, beri keldi** – juda qattiq azoblandi  
**Nari borsa** – ko‘pi bilan, ortig‘i bilan hisoblanganda  
**Nari-beriga bordi** – xafalashdi, janjallahdi  
**Nazar soldi** – diqqat bilan qaradi  
**Nazar tashladi** - qisqa muddat qaradi  
**Nazarda tutdi** - fikran hisobga oldi  
**Nazari tushdi** – bexosdan, kutilmaganda ko‘rdi  
**Nazaridan o‘tkazdi** - qarab chiqdi, birma-bir ko‘rdi, sinchiklab tanishdi  
**Nazarga ilmaydi** – 1)mensimaydi, pisand qilmaydi 2) arzugulik deb, diqqatga loyiq deb qaramaydi  
**Nazarga ilmaslik** – 1)mensimaslik, pisand qilmaslik 2) arzugulik deb, diqqatga loyiq deb qaramaslik  
**Nazaridan qoldi** – yaxshi munosabatidan, hurmat-e’tiboridan mahrum bo‘ldi  
**Nigoh tashladi** – qisqa muddat qaradi  
**Ninaday gapni tuyadek qildi** - mubolag‘a qilib, bo‘rttirib yubordi  
**Nog‘arasiga o‘ynadi** – izmi bilan, yo‘l-yo‘rig‘i bilan ish ko‘rdi  
**Nomi chiqdi** – 1) ma‘lum-mashhur bo‘ldi 2)sharmanda bo‘ldi  
**Nomimni boshqa qo‘yaman!** – biror ishni bajarishga qasd qilganlikni bildirishda aytiladi  
**Nomusi bukildi** – sharmanda bo‘ldi  
**Nonini tuyu qildi** –aldab-suldab haqini o‘zlashtirdi

-O-

**O‘lganning ustiga tepdi** – bir ko‘ngilsiz ish ustiga boshqa bir ko‘ngilsiz ishni qildi  
**O‘n og‘iz** - juda ko‘p  
**O‘ng keldi** – 1)qulay bo‘ldi 2)voqelikka aylandi  
**O‘ngidan keldi** – muvaffaqiyatl bo‘ldi  
**O‘pka(ng)ni bos(...)** – hovliqma, tinchlan

**O‘pka(si) to‘ldi** – iztirob chekib, yig‘lab yuborish holatiga yetdi  
**O‘pkasini bosolmaydi** – o‘zini yig‘lashdan saqlab qololmaydi  
**O‘rniga keltirdi** – o‘rinlatdi  
**O‘rniga qo‘ydi** – 1)bajardi 2)o‘rinlatdi  
**O‘rtaga soldi** – 1)ko‘pchilik oldida ro‘kach qildi 2)munozarada xizmatidan foydalandi  
**O‘rtaga tashladi** – fikrplashish maqsadida o‘z mulohazalarini boshqalarga aytdi  
**O‘rtaga tushdi** – 1)ikki tarafni murosaga keltirish maqsadida biror janjalga aralashdi 2)jabrdiyda deb hisoblagan kishisini himoya qilib biror janjalli ishga arashdi  
**O‘rtaga oldi** – tanbeh berish yoki ko‘ndirish maqsadida ko‘pchilik gapirdi  
**O‘takasini yordi** – qattiq cho‘chitib qo‘rquitdi  
**O‘tirgani joy topa olmaydi** – kuchli hayajonlangan holda toqatsizlandi  
**O‘tqazgani joy topa olmaydi** – o‘ta darajada ardoqlandi, parvona bo‘ldi  
**O‘tdi** – vafot yetdi  
**O‘tib ketdi I** – vafot yetdi  
**O‘tib ketdi II** – 1)jismonan va alamli ta’sir qildi, qaqshatdi 2)ruhan alamli ta’sir qildi  
**O‘y surdi** – hamma narsani unutgan holda fikrladi  
**O‘yga cho‘mdi** – chuqur fikrplash holatida bo‘ldi  
**O‘yga toldi** – uzoq fikrladi  
**O‘ylab-o‘yiga eta olmaydi** – uzoq o‘ylab, aniq bir fikrga kela olmaydi  
**O‘z-o‘zini yeb qo‘ydi** – ichki ruhiy azoblanish natijasida ozib–to‘zib ketdi  
**O‘z yog‘iga o‘zi qovrildi** – ruhan azoblandi, ezildi  
**O‘zida yo‘q** – benihoya, juda–juda(xursand)  
**O‘zidan ketdi** – behush bo‘ldi  
**O‘ziga keldi** – 1)behushlikdan qaytdi 2)odatdagи so‘zlash, anglash holatiga qaytdi 3)avvalgi sog‘ligini, kuch–quvvatini tikladi 4) to‘g‘ri idrok qildi  
**O‘ziga yuqtirmaydi** – o‘ziga tegishli deb bilmaydi  
**O‘ziga oldi** – 1)o‘ziga tegishli deb bildi 2)zimmasiga oldi  
**O‘ziga bino qo‘yan** – ortiqcha baho bergen, yuksak fikrda bo‘lgan  
**O‘zini qayoqqa urishini bilmaydi** – kuchli hayajonlangan holda toqatsizlandi  
**O‘zini qayerga qo‘yishni bilmaydi** – 1)kuchli hayajonlangan holda toqatsizlandi 2)bekorchilikdan zerikib toqatsizlandi 3)sevichdan kuchli hayajonlandi  
**O‘zini qo‘lga oldi** – o‘z xatti–harakatlarini irodasiga bo‘ysundirdi  
**O‘zini qo‘ygani joy topa olmaydi** – kuchli hayajonlangan holda toqatsizlandi  
**O‘zini yo‘qotib qo‘ydi** – gangib qoldi

## -P-

**Parvoyi falak** – beparvo, beg‘am  
**Parvoyiga keltirmaslik** – e’tibor qilmaslik, o‘ylab ham o‘tirmaslik  
**Pastga urdi** - ortiq darajada kamsitdi  
**Pashsha qo‘ridi** – foydali, ko‘zga ko‘rinarli ish bilan shug‘ullanmaslik, vaqtini befoyda o‘tkazdi  
**Pashshadan fil yasadi** – mubolag‘a qilib, bo‘rttirib yubordi  
**Payidan tushdi** – qayerga borsa, zimdan ta’qib qildi  
**Payiga tushdi** – 1)zimdan yurib butun xatti-harakatini ta’qib qildi 2)manfaatdor bo‘lgani holda berilib harakat qildi  
**Payini qirqdi** – mavqeidan mahrum etadigan zarba etkazdi  
**Pichoq suyakka yetdi** – ortiq chidab bo‘lmaydi  
**Pinagini buzmaslik** – o‘ziga qartilgan gap yoki harakatga bila-ko‘ra turib e’tibor qilmaslik, o‘zini go‘yo hech narsa bilmagandek tutish

**Pinakka ketdi** – 1)uxlab qoldi 2)xayolga cho‘mdi  
**Pixini yorgan**–o‘taketgan uddaburon, quv  
**Po‘stagini qoqdi** – ayovsiz tanqid qildi  
**Puchga chiqdi** – xom xayol bo‘lib chiqdi  
**Puchakka chiqardi** – xom xayol bo‘lib chiqdi  
**Puch yong‘oq bilan qo‘ynini to‘ldirdi** - yolg‘on va’dalar bilan aldadi  
**Putur yetdi** - zararli bo‘lib chiqdi  
**Po‘stiga somon tiqdi** - juda qattiq jazoladi  
**Po‘st tashlatadigan** - chiday olmaydigan, toqat qilib tura olmaydigan  
**Peshona teri** – halol mehnat  
**Peshona teri tukildi** – mashaqqat bilan jismoniy mehnat qildi  
**Podadan oldin chang chiqardi** – ro‘yobga chiqishi aniq bo‘lmagan narsa haqida hovliqmalik bilan vaqtidan ilgari gapirib yurdi

## -Q-

**Qalbi pok** - yaxshi niyatli, boshqalarga yomonlikni ravo ko‘rmaydigan  
**Qalbiga vahima soldi** - kuchli darajada qo‘rqish hissini uyg‘otdi  
**Qalbidan sidirib tashladi** - uzil-kesil unutdi  
**Qalbini ochdi** – ichidagi istak yoki dardini aytdi  
**Qalbi pok** - yaxshi niyatli, boshqalarga yomonlikni ravo ko‘rmaydigan  
**Qarshi oldi** – kutib oldi  
**Qattiq turdi** – o‘z aytganining amalga oshishini qat’iy talab qildi  
**Qattiq ko‘ngil** - rahm-shafqati yo‘q  
**Qahri keldi** - achchiqlandi  
**Qayoqdan kun chiqdi**?! – nechuk bunday favqulodda yaxshi ish bo‘ldi?!  
**Qaysi shamol uchirdi**?! – bu tomonga kelishingizga nima sabab bo‘ldi?  
**Qaysi yuz bilan** – qanday qilib, uyalmay  
**Qay bet bilan** - qanday qilib, uyalmay  
**Qildan qiyiq qidirdi** – deyarli aybi yo‘q odamning faoliyatidan ayb topishga harakat qildi  
**Qilidan quyrug‘igacha** – butun tafsiloti bilan, mayda–chuydasigacha, batafsil  
**Qirq marta o‘lchab, bir marta kesadi** - nihoyatda ehtiyyotkorlik bilan ish qiladi  
**Qochirdi** - juda ustun chiqdi, osonlikcha yengdi  
**Qo‘l berdi I** – salomlashish uchun dastpanjasini uzatdi  
**Qo‘l berdi II** - murid bo‘ldi  
**Qo‘l ko‘tardi** – 1)urdi 2)tarafdarligini, xayrixohligini bildirdi 3)gapiruvchi ekanini bildirdi  
**Qo‘l keldi** – manfaatiga mos tushgan holda qulaylik berdi  
**Qo‘l siltadi** – diqqat–e’tiborga noloyiq deb topdi  
**Qo‘l urdi** – 1)tegdi 2)biror ishni qila boshladi  
**Qo‘ldan berdi** – yo‘qotdi  
**Qo‘ldan chiqdi** – 1)kimningdir hukmidan, ixtiyoridan chiqib ketdi 2)bitdi(qurish, tikish, yozish kabilalar)  
**Qo‘ldan ketdi** – kimningdir hukmidan, ixtiyoridan chiqib ketdi  
**Qo‘lga kirdi** – ixtiyoriga o‘tdi  
**Qo‘lga tushdi** – 1) tutqun bo‘ldi 2) biror nojo‘ya ish bilan tutildi 3) aldanib, o‘z ixtiyorini berib qo‘ydi  
**Qo‘lga oldi** – 1)o‘z ixtiyoriga o‘tkazdi 2)qo‘qqisdan hujum qilib bosib oldi 3)hibs qildi, qamash maqsadida tutdi 4) biror yo‘l bilan o‘z xohishiga bo‘ysunnadigan qildi  
**Qo‘li baland** – raqobatda, musobaqada vaziyati ustun

**Qo'li yuqori bo'ldi** – raqobatda, musobaqada vaziyati ustunlik qildi  
**Qo'li bormadi** – nimanidir qilmaslikka undovchi his–tuyg‘uning ta’sirida biror faoliyatga kirisha olmaydi  
**Qo'li egri** – o‘zgalarning haqini, mulkini o‘g‘irlaydigan mayda o‘g‘ri  
**Qo'li kalta** – cheklangan imkoniyatga ega  
**Qo'li qisqalik qildi** – cheklangan imkoniyatga ega  
**Qo'li tegmadi** – juda bandligi tufayli vaqt topolmaydi  
**Qo'li uzun** – ortiq darajada imkoniyatga ega  
**Qo'li ochiq** – saxiy  
**Qo'lidan keldi** – bajarishga, qilishga qodir  
**Qo'lidan kelganicha** – qila olganicha, bilganicha, kuchi yetganicha  
**Qo'lini bigiz qildi** – niqtab ko‘rsatdi  
**Qo'lini ko‘tardi** – taslim bo‘lganini bildirdi  
**Qo'lini sovuq suvga urmaydi** – qiyinroq jismoniy mehnatni mutlaqo qilmaydi  
**Qo'lini burniga tiqib** - quruqdan-quruq, evaziga hech narsa ololmay  
**Qo'lini yuvib, qo‘ltig‘iga urdi** – ixlosi qaytib, ishonmay qo‘ydi  
**Qo‘ltig‘iga suv purkadi** – biror ishni qilishga o‘chakishtirdi  
**Qo‘ltig‘dan tarvuzi tushdi** - umidi puchga chiqib, bo‘shashdi  
**Qo‘yi mingga etdi** – behad sevindi  
**Qo‘yniga qo‘l soldi** – fikr niyatini bilishga harakat qildi  
**Qo‘ynini puch yong‘oqqa to‘ldirdi** – yolg‘on va’dalar bilan aldadi  
**Quling o‘rgilsin** – ajoyib  
**Qulog‘iga chalindi** – biror gapni yoki tovushni noaniq tarzda eshitdi  
**Qulog‘iga kirdi** – maxsus tinglamagani, qiziqmagani holda eshitdi  
**Qulog‘iga kirmaydi** – 1) parishon bo‘lish, kuchli hayajonlanish yoki mashg‘ul bo‘lish tufayli o‘ziga qarata aytilayotgan gaplarni anglamaydi, eshitmaydi 2)e’tiborsiz qoldiradi, qabul qilmaydi  
**Qulog‘iga qo‘ydi** – 1)gap uqtirdi 2)xotirasida mustahkam saqladi  
**Qulog‘iga qo‘yilib qoldi** – 1)gapni uqli 2)xotirasida mustahkam saqladi  
**Qulog‘iga yetdi** – biror kishi orqali eshitib, xabardor bo‘ldi  
**Qulog‘iga oldi** – kimningdir fikriga amal qilib ish tutdi  
**Qulog berdi** – tingladni  
**Qulog soldi** – 1)tingladni 2)aytganini qildi  
**Qulog osdi** – 1)tingladni 2)aytganini qildi  
**Qulog–miyasini yedi** – so‘rayverib miyasini charchatdi, sergapligi bilan bezdirdi  
**Quti uchdi** – qattiq qo‘rqqanidan, g‘azablanganidan rangi oqardi  
**Quruq aravani olib dochdi** - uddasidan chiqa olmaydigan ish yoki narsa haqida ortiq darajada maqtandi  
**Qushdek yengil tortdi** - ruhiy azoblanishi tarqadi  
**Quvochi ichiga sig‘maydi** – xursandligi oshib-toshib ketdi  
**Qon yutdi** – ich-ichidan kuchli darajada ruhan azoblandi  
**Qoni qaynadi** – achchiqlandi, qizishdi  
**Qora terga botdi** – haddan tashqari zo‘r berish natijasida mo‘l– ko‘l terladi  
**Qora yurak** – garazgo‘y, buzuq niyatli  
**Qorasasi o‘chdi** – uzoqlashib, ko‘rinmay ketdi  
**Qorasini ko‘rsatmaydi** – kimningdir ko‘ziga hech ko‘rinmaydi  
**Qordan qutilib, yomg‘irga tutildi** – avvalgisidan ham yomoniga uchradi  
**Qosh qo‘yaman deb, ko‘z chiqardi** – yaxshilik qilaman degan holda yomonlik qilib qo‘ydi

**Rahmi keldi** – ayash, achinish hissi uyg‘ondi  
**Rahmini keltirdi** – ayash, achinish hissini uyg‘otdi  
**Razm soldi** – sinchkovlik bilan kuzatdi  
**Razm solinsa** – sinchkovlik bilan kuzatilsa  
**Ro‘yobga chiqardi** – 1)ko‘ngildagi istak-rejalarni voqelikka aylantirdi 2)moddiy-ma’naviy ojizlikdan xalos bo‘ldi  
**Ruhi tushdi** – ruhiy tushkunlikka berildi  
**Ruhi ko‘tarildi** – ruhiy tushkunlikdan chiqdi  
**Ruhini ko‘tardi** – ruhiy tushkunlikdan qutqardi

-S-

**Sabr kosasi to‘ldi** - 1) o‘lar holatga yetdi 2) chidami tugab, yashashdan ham bezor bo‘lib ketdi  
3) nihoyatda qattiq qo‘rqdi  
**Sanamay «sakkiz» dedi** – aniq bilmay turib gapirdi  
**«San-man»ga bordi** – janjallashuv, tortishuv darajasiga yetdi  
**Sariq chaqalik** – hech  
**Sarkalavasini yo‘qotdi** - qilib turgan ishini bilmay qoldi, gangidi  
**Savodi chiqdi** – 1)o‘qish-yozishni bildi 2)nimaningdir sirlarini bilib, o‘rganib oldi  
**Savol berdi** – javob talab qiluvchi so‘z-gap aytdi  
**Sakkiz yoshdan sakson yoshgacha** - katta-kichik, hamma  
**Sazasi o‘lmadi** – gapi e’tiborsiz qolsa, xafa bo‘lmasin deb aytganini bajardi  
**Sazasini o‘ldirmaslik** – gapi e’tiborsiz qolsa, xafa bo‘lmasin deb aytganini bajardi  
**Sichqonning ini ming tanga bo‘ldi** – qochib qutulgani joy topilmay qoldi  
**Sirkasi suv ko‘tarmaydi** – tanqidga mutlaqo chidamaydi  
**Sitorasi issiq** - xush ko‘rinishli, yoqimli, jozibador  
**Siqilib ketgan** - ziq bo‘lgan  
**Sodda dil** - ishonuvchan, jo‘n  
**Sodda dillik bilan** – jo‘nlik, ishonuvchanlik oqibatida  
**Sof dil** – vijdonli, beg‘araz  
**Sof dillik** – vijdonlilik, beg‘arazlik  
**Sochi tikka bo‘ldi** - bir lahzaning o‘zida nihoyatda g‘azablandi  
**So‘z berdi** – 1)muzokarada gapirishga rasmiy ruxsat berdi 2)ahd-u paymon qildi  
**So‘z bera(di)mi?!** – 1) boshqalarga imkon bermay, nuqul o‘zi gapirdi 2)itoat qilmaslik, o‘z bilganicha ish tutdi 3) bahslashuvda yutib chiqishga qodir bo‘ldi  
**So‘z bermaslik I** – 1) boshqalarga imkon bermay, nuqul o‘zi gapirdi 2)itoat qilmaslik, o‘z bilganicha ish tutdi 3) bahslashuvda yutib chiqishga qodir bo‘ldi  
**So‘z bermaslik II** - muzokarada gapirishga rasmiy ruxsat berdi  
**So‘z bermaydi** – 1) boshqalarga imkon bermay, nuqul o‘zi gapirdi 2)itoat qilmadi, o‘z bilganicha ish tutdi 3)bahslashuvda yutib chiqishiga qodir bo‘ldi  
**So‘z oldi** – 1)muzokarada gapirishga rasmiy ruxsat oldi 2)ahd-u paymon qildirdi  
**So‘z otdi** - 1)fikrini bilish maqsadida biror gap-so‘z aytdi 2) suhbatga tirtish maqsadida tegajoqlik bilan gapirdi  
**So‘z tashladi** - 1)fikrini bilish maqsadida biror gap-so‘z aytdi 2) suhbatga tirtish maqsadida tegajoqlik bilan gapirdi  
**So‘z tegadigan bo‘ldi** – tanbeh eshitadigan bo‘ldi  
**So‘z otdi** - 1)fikrini bilish maqsadida biror gap-so‘z aytdi 2) suhbatga tirtish maqsadida tegajaklik bilan gapirdi

**So‘z qaytardi** - 1)javob qildi 2)e’tiroz javobini berdi, aytishdi  
**So‘z qistirdi** – biror kishining nutqi davomida shu nutqni bo‘luvchi so‘z-gap ilova qildi  
**So‘z qotdi** - 1)suhbatga tortish maqsadida gap aytdi 2)biror kishining nutqi davomida yo‘l-yo‘lakay biror fikrni aytib qoldi  
**So‘ziga kirdi** – 1)tingladni 2)aytganini qildi  
**So‘ziga so‘z qaytardi** – 1)javob qildi 2)e’tiroz javobini berdi, aytishdi  
**So‘zi o‘tdi** – aytgani inobatga olindi, ma’qullandi  
**So‘zida turdi I** - ahdini saqladi  
**So‘zida turdi II** – o‘z fikrini o‘tkazishga intilib qaysarlik qildi  
**So‘zida qattiq turdi** – o‘z fikrini o‘tkazishga intilib qaysarlik qildi  
**So‘zidan qaytdi** – ahdidan voz kechdi  
**So‘zini qaytardi** – rad javobini berdi  
**So‘zini bermaslik** - 1) boshqalarga imkon bermay, nuqul o‘zi gapirdi 2)itoat qilmaslik, o‘z bilganicha ish tutdi 3) bahslashuvdayutib chiqishga qodir bo‘ldi  
**So‘zini berdi** - ahd-u paymon qildi  
**So‘zini ikki qilmaslik** – aytgani bajarildi  
**So‘zlar bir joydan chiqdi** - fikr-o‘ylari mos keldi  
**So‘xtasi sovuq** – yoqimsiz, badhazm  
**Suv quygandek** – hech qanday tovush yo‘q  
**Suv sepgandek** – hech qanday tovushsiz  
**Suvga oqizdi** – befoyda sarfladi, diyarli tekinga berdi  
**Suyagi qotdi** – yoshligidan biror ish bilan shug‘ullanib katta bo‘ldi  
**Suyak-suyagidan o‘tib ketdi** – 1) jismiga chuqur ta’sir qildi 2) ruhiga chuqur ta’sir qildi  
**Suyangan tog‘i** – 1)suyanchig‘i, g‘amxo‘ri 2)orqa qiladigan, e’tiqod-ishonch bilan qaraydigani  
**Sevinchi ichiga sig‘maydi** – xursandligi oshib-toshib ketdi  
**Sevinchini yuragiga sig‘dirolmaslik** – xursandchiligi oshib-toshib ketdi  
**Soyasiga ko‘rpacha soldi** – izzat-hurmat qilishni me’yoridan o‘tkazib yubordi

**-SH -**

**Shamolga sovurdi** – behuda sarfladi  
**Shamolga uchdi** – befoyda ketdi  
**Shishib ketgan** - kibrlandi, gerdaydi  
**Shovqin soldi** – qattiq shovqin qildi  
**Shodligi ichiga sig‘maydi** - xursandligi oshib-toshib ketdi  
**Shishib ketgan** - gerdayib ketdi, kibrga berildi

**-T-**

**Ta’bi tirriq** – kayfiyati yomon, xafa  
**Tabiatli tirriq bo‘ldi** - kayfiyati yomonlashdi, xafa bo‘ldi  
**Ta’bi xira** – kayfiyati yomon, xafa  
**Ta’bi xiralashdi** – kayfiyati yomonlashdi  
**Ta’bi namozshom** – kayfiyati yomon, xafa  
**Ta’bi kir bo‘ldi** – kayfiyati yomonlashdi, xafa bo‘ldi  
**Tabiatini xira qildi** - kayfiyati yomonlashdi, xafa bo‘ldi  
**Tayoqni alif deydigan** - g‘irt savodsiz, hech narsa bilmaydigan  
**Ta’zirini berdi** – yengil-yelpi jazoladi  
**Ta’zirini yedi** – qilmishiga yarasha jazo oldi  
**Tagiga yetdi** – mohiyatini, sababini oxirigacha aniqlab, anglab oldi  
**Tan berdi** – e’tirof qilishga majbur bo‘ldi, rozi bo‘ldi

**Tan oldi** – e’tirof qildi  
**Tanbeh berdi** – yengil-yelpi jazoladi, urishib qo‘ydi  
**Tap tortmaydi** – qo‘rqmay botindi, hayiqmaydi  
**Tarvuzi qo‘ltig‘idan tushdi** – umidi puchga chiqib, bo‘shashdi  
**Tarafini oldi** - bahslashuvda tomonlardan birini himoya qildi  
**Tashvish tortdi** – 1)tashvish qildi 2)xavotir bo‘ldi  
**Tashvish chekdi** – 1)tashvish qildi 2)xavotir bo‘ldi  
**Tashvishga soldi** – tashvish qilishiga sabab bo‘ldi  
**Tashvishga tushdi** – o‘z-o‘zicha tashvish qildi  
**Til biriktirdi** – yashirin holda kelishib oldi  
**Tilga kirdi** – 1)nutqqa ega bo‘ldi(go‘dak) 2)ma’lum fursat o‘tgandan keyin gapira boshladи  
**Tilga keldi** – gapirish qobiliyatı tiklandı  
**Tilga oldi** – gapirdi  
**Tili bir qarich** – maqtanishga, gapirishga haqli  
**Tili bormadi** – biror andisha mulohaza bilan aytishni ma’qul ko‘rmaydi  
**Tili chiqdi** – 1)nutqqa ega bo‘ldi 2)indamay yurgan kishi gapiradigan bo‘lib qoldi 3)aytishadigan bo‘ldi  
**Tili qichidi** – gapirgisi keldi  
**Tili qisiq** – gapirmaslikka, e’tiroz bildirmaslikka majbur  
**Tili uzun** – har qancha gapirishga haqi bor  
**Tiliga tushdi** – 1) ko‘pchilik orasida gap-so‘z bo‘ldi 2) shuhrat qozondi  
**Tilini qisdi** – gapirmaslikka, e’tiroz bildirmaslikka majbur qildi  
**Tilini tishladi** – o‘zini gapirmaslikka majbur qildi  
**Tinkasi quridi** – toliqdi, darmonsizlandı  
**Tinka - madori quridi** – toliqdi, darmonsizlandı  
**Tirnoq orasidan kir qidirdi** – yomon niyat bilan deyarli aybi yo‘q kishining faoliyatidan ayb topishga harakat qildi  
**Tishi o‘tmaydi** – 1)biror qattiqroq narsani maydalashga, chaynashga tishining qurbi etmaydi 2)enga olmaydi, o‘zlashtira olmaydi 3) idrok qilib yeta olmaydi, uqib yeta olmaydi  
**Tishini tishiga qo‘ydi** – butun his-tuyg‘usini iroda kuchi bilan yengib chidadi  
**Tishining oqini ko‘rsatdi** – tirjayib, ishshayib qaradi  
**To‘g‘ri keldi** – 1)muvofig bo‘ldi, mos bo‘ldi, yaradi 2)bir vaqtida bo‘ldi 3)yo‘liqdi, uchradi 4) taqsimlaganda tegdi 5) qulay bo‘ldi 6) lozim bo‘ldi, zarur bo‘ldi  
**To‘g‘ri kelgan** – daf’atan nima yoki kim uchrasa, shu  
**To‘nini teskari kiyib oldi** – o‘chakishgan holda qaysarlik qildi  
**To‘rt ellik - qisqagina**  
**To‘rt ko‘z bilan** – intizorlik bilan  
**To‘rt tarafi qibla** – qayoqqa xohlasa, ketaversin  
**To‘rt og‘iz** – oz-moz, bir oz  
**To‘rt gapning birida** - gap davomida dam-badam, qayta-qayta gapirdi  
**To‘ydan ilgari nog‘ora qoqdi** – ro‘yobga chiqishi aniq bo‘lmagan narsa haqida hovliqmalik bilan vaqtidan oldin gapirib yubordi  
**Tumshug‘ini suqdi** – 1) kirdi 2) aralashdi  
**Tumshug‘ini tiqdi** - aralashdi  
**Turgan gap I** – aniq, shak-shubhasiz(kesim vazifasida keladi)  
**Turgan gap II** – aniq, shak-shubhasiz(kirish bo‘lak vazifasida keladi)  
**Turgan gap edi** – aniq, shak-shubhasiz  
**Turgan gapki** – aniq, shak-shubhasiz  
**Turib oldi** - o‘jarlik qildi  
**Turmush qurdi** – oilaviy hayot kechirdi  
**Turmushga chiqdi** – oila qurdi(xotin–qizlarga nisbatan)

**Tushiga kirmaydi** – mutlaqo o‘ylamaydi, kutmaydi  
**Tushida ham ko‘rmaydi** - mutlaqo o‘ylamaydi, kutmaydi  
**Tuya ko‘rdingmi–yo‘q** – o‘zini ko‘rmaganga, bilmaganga chiqardi  
**Tuya qildi** - aldab-suldaq haqini o‘zlashtirdi  
**Tegirmonga tushsa, butun chiqadi** – har qanday qiyin sharoitdan ham qutulish yo‘lini topa oldi  
**Tegib ketdi** - gap-so‘zi ta’sir qildi  
**Tekkanga tegib, tegmaganga kesak otadi** – hech kimga tinchlik bermaydi  
**Temirni qizig‘ida bosdi** – biror ishni ayni vaqtida qildi  
**Tepa sochi tikka bo‘lib ketdi** – bir lahzanining o‘zida nihoyatda g‘azablandi  
**Tepsa-tebranmas** – har qanday ishni ham imillab qiladigan, sustkash  
**Ter to‘kdi** – mashaqqat bilan jismoniy mehnat qildi  
**Teri to‘nini ters kiyib oldi** - o‘chakishgan holda qaysarlik qildi  
**Terisi suyagiga yopishgan** - haddan tashqari ozg‘in, haddan tashqari qotma  
**Terisiga sig‘may ketdi** – behad sevindi  
**Terisiga somon tiqdi** – juda qattiq jazoladi  
**Tob berolmaydi** – chiday olmaydi, qarshi tura olmaydi  
**Tob keltira olmaydi** – chiday olmaydi, qarshi tura olmaydi  
**Tobi qochdi** – kasal bo‘ldi  
**Tobi yo‘q** – 1)kasal 2)rag‘bati yo‘q, kelishmaydi  
**Tog‘ni talqon qildi** – har qanday katta va og‘ir ishni ham bajardi  
**Tog‘ni ursa– talqon qiladigan** – zabardast, pahlavon  
**Tog‘dan kelsa, bog‘dan keldi** - suhbatdoshining gapiga hech aloqasi yo‘q gap-so‘z aytdi  
**Tog‘ni talqon qiladigan** – zabardast, pahlavon  
**Tomdan tarasha tushganday** – qo‘qqisdan, kutilmagan holda va qo‘pol tarzda  
**Tomonini oldi** - bahslashuvda tomonlardan birini himoya qildi  
**Tor kelib qolganda** - ilojsiz og‘ir ahvolga tushdi  
**Tosh bag‘ir** – berahm  
**Tosh ko‘ngil** – rahm-shafqati yo‘q  
**Toqati toq bo‘ldi** – sabr chidami tugadi  
**Tosh ko‘ngil** – rahm-shafqati yo‘q  
**Tosh yurak** – rahm-shafqati yo‘q  
**Tosh otdi** – yomon xatti-harakatlarini qildi

–U–

**Uchchiga chiqqan** – o‘taketgan  
**Uddasidan chiqdi** – uddalay oldi, eplay oldi  
**Umidini uzdi** – ko‘nglidagi oxirgi ilinjini ham yo‘qotdi  
**Umr ko‘rdi** – yashadi  
**Umr o‘tkazdi** – yashadi  
**Ustiga oldi** - biror ishni bajarishga mas’ul bo‘ldi  
**Ustdidan chiqdi** – 1) biror narsa qilayotganida tepasiga borib qoldi 2)va’dani bajardi  
**Ustun keldi** – yengdi  
**Uzildi** – vafot yetdi  
**U yoqda tursin** – zidlash ma’nosini anglatib, bog‘lovchi vazifasida keldi  
**Uxlab, tushida ko‘rmaslik** - mutlaqo o‘ylamaslik, kutmaslik  
**Uch pul** - qadr-qiyimatsiz  
**Uch pul bo‘ldi** - barbod bo‘ldi  
**Uch -to‘rt og‘iz** - oz-moz, bir oz  
**U qulog‘idan kirib, bu qulog‘idan chiqib ketdi** - e’tibor bermay, xotirasida tutib qololmaydi

-V-

**Vahima bosdi** – qo‘rquinchli o‘y-xayollarga berildi  
**Vahimaga solib qo‘ydi** – qo‘rqtib, o‘ylantirib qo‘ydi  
**Vahimaga tushdi** - qo‘rqan holda o‘ylanib qoldi  
**Vaqti chog‘** – kayfiyatni yaxshi  
**Vaqti chog‘lik qildi** – xursandchilik , dilxushlik qildi  
**Voz kechdi** – uzil-kesil kechib yubordi

-Y-

**Yakson qildi** - butunlay yemirildi, yo‘q bo‘ldi  
**Yaqin oldi** – 1)qadrdon qilib ko‘rsatdi 2)qadrdon deb bildi  
**Yaxshi ko‘rdi** – 1)sevdi, oshiq bo‘ldi 2)sevdi, izzat-hurmat qildi 3)yoqtirdi  
**Yelkasiga oldi** - e’tirof qildi, biror holatga rozi bo‘ldi  
**Yelkasining chuquri ko‘rsin** – yana qaytadan hech qachon ko‘rmasin  
**Yeng ichida** – ko‘pchilikka oshkor qilmay, zimdan  
**Yeng shimarib** - astoyidil, jiddiy ravishda  
**Yeng shimardi** – biror yumushni bajarishga taxt bo‘ldi, biror ishni qilishga otlandi  
**Yengil tabiat** - yengiltak, suyuq  
**Yengil tortdi** – ruhiy azoblanishi tarqadi  
**Yer tishlatdi** – o‘ldirdi  
**Yer bilan bitta bo‘ldi** – sochilib ketdi, betartib holda sochilib yotdi  
**Yer bilan yakson bo‘ldi** – butunlay yemirildi, yo‘q bo‘ldi  
**Yer bilan osmoncha** – juda katta, beqiyos  
**Yer tagida ilon qimirlasa biladi** – nihoyatda ziyrak, sezgir  
**Yerga kirib ketdi** - qattiq izza bo‘ldi, o‘sal bo‘ldi  
**Yer yorilmadi-yu, yerga kirib ketmadi** – nomus qilganidan o‘zini qayoqqa olib ochishni bilmadi  
**Yerga kirsa, qulog‘dan tortib chiqaradi, osmonga chiqsa, oyog‘idan tortib tushiradi** - qutulib ketishiga qo‘ymaydi  
**Yer ostidan** – yashirinchcha, sezdirmay  
**Yerda qoldi** – e’tiborsiz qoldi  
**Yerga kirib ketdi** – qattiq izza bo‘ldi, o‘sal bo‘ldi  
**Yerga qaradi** – uyat-nomusdan bosh ko‘tarolmaydigan holatga tushdi  
**Yerga urdi** – ortiq darajada kamsitdi  
**Yerga ursa, ko‘kka sapchiydi** – o‘taketgan sho‘x, o‘taketgan betinim  
**Yeru ko‘kka ishonmaydi** – o‘ta darajada ardoqlaydi, parvona bo‘ladi  
**Yetti bukilib** - ortiq darajada egilib  
**Yetti nomusini yerga bukdi** – sharmanda qildi  
**Yetti o‘lchab, bir kesadi** – nihoyatda ehtiyyotkorlik bilan ish qiladi  
**Yetti uxbab, tushiga kirmaydi** – mutlaqo o‘ylamaydi, kutmaydi  
**Yetti yashardan yetmish yashargacha** – katta-kichik, hamma  
**Yig‘lamoqdan beri bo‘ldi** – yig‘lab yuborish darajasiga yetdi  
**Yil-o‘n ikki oy** – butun yil davomida, yozin-qishin  
**Yo‘l bo‘lsin** – 1)qayerga ketyapsiz, qayerga bormoqchisiz? (so‘rash) 2)Qayoqda!(biror ishni) qila olarmidi?  
**Yo‘l berdi** – 1) o‘zi chetlanib, boshqaning o‘tishiga imkon berdi 2)monelik qilmadi  
**Yo‘l qo‘ydi** – voqe bo‘lishiga imkon berdi  
**Yo‘l oldi** – jo‘nadi  
**Yo‘l soldi** – yo‘naldi  
**Yo‘l ko‘rsatdi** – nima qilish lozimligi haqida maslahat berdi

**Yo‘ldan chiqardi** – yomon yo‘lga boshladi, aynitdi  
**Yo‘ldan urdi** – yomon yo‘lga boshladi, aynitdi  
**Yo‘ldan ozdi** – yomon yo‘lga kirdi, aynidi  
**Yo‘ldan ozdirdi** – yomon yo‘lga boshladi aynitdi  
**Yo‘lga chiqdi** – jo‘nab ketdi, ravona bo‘ldi  
**Yo‘lga qo‘ydi** – faoliyatini yaxshiladi  
**Yo‘lga soldi** – 1) ketish tomoniga to‘g‘irlab, yurg‘izdi 2)to‘g‘ri yo‘lga qaytardi 3) manfaatdor bo‘lgani holda biror ishga rag‘batlantirdi 4)faoliyatini yaxshiladi  
**Yo‘lga tushdi** – 1) jo‘nadi, keta boshladi 2)to‘g‘ri yo‘lga qaytdi  
**Yo‘liga ko‘z tutdi** – kelib qolar degan umidda kutdi  
**Yo‘l-yo‘riq ko‘rsatdi** – nima qilish lozimligi haqida maslahat berdi  
**Yo‘q yerdag‘i** – hech kim bilmaydigan, hech kimning xayoliga kelmaydigan, bo‘lmaq‘ur  
**Yo‘jni yo‘ndirdi** – qancha mashaqqat bilan bo‘lsa ham, bunyod qildi  
**Yodiga soldi** - 1)xotirasida tikladi 2)unutilayozganni eslatdi  
**Yodiga tushdi** - xotirasida tikladi  
**Yodidan chiqdi** - unutdi  
**Yodidan ko‘tarildi** – unutdi  
**Yodida qoldi** - xotirasida saqlanib qoldi  
**Yodiga keldi** - 1)xotirasida tiklandi 2)o‘yladi, idrok qildi  
**Yog‘ tushsa, yalagudek** – nihoyat darajada toza  
**Yomon ko‘radi** – 1) sevmaydi, izzat-hurmat qilmaydi 2) yoqtirmaydi  
**Yon berdi** – ustun bo‘lishiga yo‘l qo‘ydi  
**Yon bosdi** – yoqladi  
**Yonini oldi** – bahslashuvda tomonlardan birini himoya qildi  
**Yoqasini ushladi** – nihoyat darajada ajablandi  
**Yostig‘ini quritdi** – butun oilasi bilan o‘ldirib yubordi  
**Yostiqdan bosh ko‘tardi** – yotib qolgan xastalikdan keyin sog‘aya boshladi  
**Yumshoq ko‘ngil** - ko‘ngilchan, rahmdil  
**Yumilgan ko‘z** - qazo qilgan, o‘lgan  
**Yulduzi yulduziga to‘g‘ri keldi** – bir–biriga mos bo‘ldi  
**Yulduzni benarvon uradigan** – har qanday ishni abjirlik bilan bajaradigan  
**Yulduzi issiq** - xush ko‘rinishli, yoqimli, jozibador  
**Yurakka sig‘armidi?!** - diqqatlik, xafalik tufayli mashg‘ul bo‘lolmaslik  
**Yuragi achidi** – 1)ayab kuyindi 2)achinib kuyindi  
**Yuragi betlamadi** – nimadandir xavfsirab, biror ishga jazm qila olmaydi  
**Yuragi chiqib ketdi** – bir lahzada kuchli hayajonlanish bilan qattiq qo‘rqib ketdi  
**Yuragi ezildi** – ruhan azoblandi  
**Yurak-bag‘ri ezildi** – ruhan azoblandi  
**Yuragi dov bermadi** – cho‘chib botina olmaydi  
**Yuragi sof** - yaxshi niyatli, boshqalarga yomonlikni ravo ko‘rmaydigan  
**Yuragi toza** - yaxshi niyatli, boshqalarga yomonlikni ravo ko‘rmaydigan  
**Yuragi pok** - yaxshi niyatli, boshqalarga yomonlikni ravo ko‘rmaydigan  
**Yuragi keng** – hovliqmasdan, shoshmasdan ish tutadigan  
**Yuragi ko‘tarmaydi** - 1)yana eb-icha olmaydi 2)yoqtirmaydi  
**Yuragi o‘ynadi** – 1)yurak urishi odatdagidan ko‘ra tezlashdi 2)qalbi hayajonga to‘ldi  
**Yuragi daryo** – hovliqmasdan, shoshmasdan ish tutadigan  
**Yuragi po‘killadi** – biror yoqimsiz ishning voqe bo‘lishidan hadiksiradi  
**Yuragi qinidan chiqayozdi** – 1)betoqat bo‘ldi 2)sevinchdan kuchli to‘lqinlandi  
**Yuragi qon** - g‘am-alamli, g‘am-alamda  
**Yuragi qora** - garazgo‘y, buzuq niyatli  
**Yuragi qon bo‘ldi** – 1)ziq bo‘ldi 2)ruhan azoblandi

**Yurak-bag'ri qon bo'ldi** – 1)ziq bo'ldi 2)ruhan azoblandi  
**Yuragi xun bo'ldi** – 1)ziq bo'ldi 2)ruhan azoblandi  
**Yuragi qoq yorila yozdi** – sevinib, juda kuchli hayajonlandi  
**Yuragi shuv etdi** – bir lahza ich–ichidan qo‘rqish aralash hayajonlandi  
**Yuragi shig‘ etib ketdi** – bir lahza ich–ichidan qo‘rqish aralash hayajonlandi  
**Yuragi taka-puka bo‘ldi** – ruhan notinch, bezovta  
**Yuragi tars yorilib keta yozdi** – sabr–chidami tugab, xunob bo‘lib ketdi  
**Yuragi tosh** - rahm-shavqati yo‘q  
**Yuragi toshdi** – kechinmalari ichiga sig‘may, kimgadir aytish aytish ehtiyoji tug‘ildi  
**Yuragi orqasiga tortib ketdi** – bir lahza ich–ichidan qo‘rqish aralash qattiq hayajonlandi  
**Yuragi g‘ash** – tashvishli, bezovta, notinch  
**Yuragi g‘ashlandi** – tashvishli, bezovta, notinch bo‘ldi  
**Yuragi xira** – tashvishli, bezovta, notinch  
**Yuragi yorishdi** - ko‘nglidagi g‘ashlik tarqadi  
**Yuragida kiri yo‘q** – kek saqlamaydigan, g‘arazi yo‘q  
**Yuragidan chiqardi** – 1)butkul unutib yubordi, o‘ylamay, eslamay qo‘ydi 2)ko‘nglidagi g‘uborni tarqatdi 3)o‘z roziligi bilan berishni ma’qul ko‘rdi  
**Yuragidan sidirib tashladi** – uzil-kesil unutdi  
**Yuragidan urdi** – o‘ziga shaydo qilib oldi  
**Yuragiga sig‘armidi??!** - diqqatlik, xafalik tufayli mashg‘ul bo‘lolmaslik  
**Yuragiga sig‘maslik** - diqqatlik, xafalik tufayli mashg‘ul bo‘lolmaslik  
**Yuragiga tugdi** - 1)o‘rni kelganda aytishni mo‘ljallab qo‘ydi 2)ahd qildi 3)fikran belgilab qo‘ydi 4) unutmay ichda saqladi  
**Yuragiga g‘ulg‘ula soldi** – bezovta qilib qo‘ydi  
**Yuragiga qil sig‘maydi** – juda qattiq tajang bo‘lib, ruhan ezilib, hech narsa bilan mashg‘ul bo‘lomaydi  
**Yuragiga qo‘l soldi** - eng yashirin fikr-o‘yini bilishga harakat qildi  
**Yuragiga vahima soldi** – kuchli darajada qo‘rqish hissini uyg‘otdi  
**Yuragini bo‘shatdi** – ichida yig‘ilib qolgan hasrat-nadomatini aytib, yig‘lab, ruhan yengillashib oldi  
**Yuragini hovuchlab** – biror falokatning voqe bo‘lishidan benihoya qo‘rqqan holda  
**Yuragini changallagancha** – biror falokatning voqe bo‘lishidan benihoya qo‘rqqan holda  
**Yuragini siqdi** – ziq qildi  
**Yuragini ezdi** – ruhan azoblandi  
**Yuragini tirnadi** – yashirin holda ruhan bezovta qildi  
**Yuragini yordi I** – qattiq cho‘chitib qo‘rquitdi  
**Yuragini yordi II** - ichidagi istak yoki dardini aytди  
**Yuragini yozdi** - xafachiligini tarqatdi  
**Yuragini ochdi** – ichidagi istak yoki dardini aytди  
**Yuragini olib qo‘ydi** – bezillatib qo‘ydi  
**Yuragining bir chekkasi g‘ash** - tashvishli , bezovta, notinch  
**Yuragining chigili yozildi** - xafachiligi tarqadi  
**Yuz ko‘rmas bo‘ldi** – aloqani butunlay uzdi  
**Yuz o‘girdi** – 1)boshini burib qaradi 2)qaramaslik uchun boshini boshqa tomonga burdi 3)aloqani uzdi  
**Yuz o‘giz** – juda ko‘p  
**Yuzaga chiqdi** – 1)ko‘ngildagi istak–rejalar voqelikka aylandi 2)moddiy-ma’naviy ojizlikdan xalos bo‘ldi  
**Yuzi chidaydi** - nomus qilmaydi, uyalmaydi, andisha qilmaydi  
**Yuzi chidamadi** – andisha qildi, nomus qildi  
**Yuzi shuvut** – uyatli holatda  
**Yuzi shamgin bo‘ldi** – uyatli holatga tushdi

**Yuzi yorug** – uyaladigan joyi yo‘q, olqishlashga loyiq  
**Yuzidan o‘ta olmaydi** – biror ishni qilishga kimningdir ra’yi, xohishi bilan hisoblashdi  
**Yuziga soldi** – aybli deb qaralgan kishining o‘ziga shu haqda kesatib, achitib gapirdi  
**Yuziga oyoq qo‘ydi** – behurmat qilish darajasida hisoblashmaydi  
**Yuzini erga qaratdi** – uyat–nomusdan bosh ko‘tara olmaydigan holatga tushdi  
**Yuzini teskari o‘girdi** – qaramaslik uchun boshini boshqa tomonga burdi  
**Yuzini ohib yubordi** – uyalmaydigan qildi  
**Yuzini ters burdi** – qaramaslik uchun boshini boshqa tomonga burdi  
**Yuqori keldi** - pisand qilmadi

**-Z-**

**Zabtiga oldi** – juda kuchayib ketdi  
**Zahrini sochdi** – zug‘um qildi, g‘azab bilan achitib-achitib gapirdi  
**Zahridan tushdi** - achchiqlanishdan to‘xtadi  
**Zarar ko‘rdi** – zarar qildi  
**Zarar keltirdi** – zararli bo‘lib chiqdi  
**Zarar yetkazdi** – zararli bo‘lib chiqdi  
**Zarari tegdi** – zararli bo‘lib chiqdi  
**Zardasi qaynadi** – juda jahllandi  
**Zimmasiga tushdi** – javobgar qilindi  
**Zimmasiga oldi** – biror ishni bajarishga mas’ul bo‘ldi  
**Ziyon yetkazdi** - achchiqlanishdan to‘xtadi  
**Zig‘ir yog‘day ko‘ngliga urdi** - 1)qiziqishi yo‘qoldi 2)jirkanish hissini uyg‘otdi, bezdirdi  
**Zarar ko‘rdi** – zarar qildi  
**Ziyon ko‘rdi** – zarar qildi  
**Zo‘r berdi** – 1)to‘la-to‘kis safarbar qilishga harakat qildi 2)butun kuch-g‘ayratini safarbar qildi  
 3)biror narsaga boshqalardan ko‘proq e’tibor qildi  
**Zo‘r berib I** – to‘la-to‘kis safarbar qilishga harakat qildi  
**Zo‘r berib II** - muttasil va astoydil  
**Zuvalasi pishiq** – a’zoyi badani chiniqqan  
**Zeb berdi** – turli kiyim va taqinchoqlar yordamida o‘zini ko‘rkam qildi  
**Zehn soldi** – diqqat-e’tibor bilan qaradi, ko‘zdan kechirdi  
**Zoye ketdi** – befoya sarflandi

**-O-**

**Obro‘yi baland** – katta e’tiborga ega  
**Obro‘yi tushdi** – nufuziga zarba yetdi  
**Obro‘yi oshdi** – yana ham e’tiborli bo‘ldi  
**Obro‘yi ko‘tarildi** – yana ham e’tiborli bo‘ldi  
**Obro‘yi to‘kildi** – nufuziga zarba etkazdi  
**Obro‘yini ko‘tardi** – yana ham e’tiborli qildi  
**Obro‘yini oshirdi** – yana ham e’tiborli bo‘ldi  
**Obro‘yini tushirdi** – nufuziga zarba yetkazdi  
**Obro‘yini to‘kdi** – nufuziga zarba etkazdi  
**Ochiq chehra bilan** – yaxshi kayfiyat bilan, xushtabiatlik bilan  
**Ochiq yuz bilan** – yaxshi kayfiyat bilan, xushtabiatlik bilan  
**Ochiq chehrali** – xushtabiat, kayfiyati yaxshi  
**Ochiq yuzli** – xushtabiat, kayfiyati yaxshi  
**Ochiq ko‘ngil** – samimiy, g‘ayirlikni bilmaydigan

**Ochiq qo‘l – saxiy**  
**Oshib–toshib yotdi** - ortiq darajada, benihoya ko‘p  
**Odam qo‘ydi** – 1)o‘zi bilan o‘zga tomon orasida birov vositachiligidan foydalandi 2) biror kishi yordamida kimnidir ta’qib etdi  
**Odobini berdi** – qilmishiga yarasha jazoladi  
**Og‘ir oyoq** – homilador  
**Og‘iz juftladi** – gapirishga hozirlandi  
**Og‘iz ko‘pirtirdi** – ko‘p va maqtanib gapirdi  
**Og‘iz soldi** – 1)qayliq yoki kuyov qilish niyati borligini aytди 2)g‘ayri qonuniy ravishda o‘zlashtirishga harakat qildi  
**Og‘iz-burun o‘pishdi** – apoq-chapoq bo‘lib ketdi  
**Og‘zi bormadi** – biror andisha-mulohaza bilan aytishni ma’qul ko‘rmadi  
**Og‘zi katta** – 1)soxta kibr-havoli, maqtanishni yaxshi ko‘radigan 2)imtiyozli mavqega ega (kinoya)  
«Og‘zing qani?» – desa, **qulog‘ini ko‘rsatadi** – o‘taketgan noshud, merov, anqov  
**Og‘zi qulog‘ida** – nihoyatda xursand  
**Og‘zi qulog‘iga yetdi** – behad sevindi, xursandligi tufayli lab-lunjini yig‘ishtirib ololmadi  
**Og‘zidan bol tomadi** – shirinsuxan bo‘ladi, shirnsuxanlik qiladi  
**Og‘zidan ona suti ketmagan** – hali yosh, tajribasiz  
**Og‘zidan sut hidi keladi** - hali yosh, tajribasiz  
**Og‘ziga qarab** – o‘ylab («gapirdi»)  
**Og‘ziga qaramay** – o‘ylamasdan («gapirdi»)  
**Og‘ziga qaradi** – 1) tingladi, nima deyishini diqqat bilan kutdi 2) o‘z bilganicha ish qilmay, kimningdir ko‘rsatmasini kutdi  
**Og‘ziga qarattdi** – nutqi bilan mahliyo qilib oldi  
**Og‘ziga qatiq ivitdi** – mutlaqo gapirmadi, suhbatda mutlaqo qatnashmaydi  
**Og‘ziga tushdi** – ko‘pchilik orasida gap-so‘z bo‘ldi yoki ma’lum-mashhur bo‘ldi  
**Og‘ziga tolqon soldi** – mutlaqo gapirmadi  
**Og‘ziga nos oldi** – mutlaqo gapirmadi  
**Og‘ziga co‘k soldi** – umuman gapirmadi  
**Og‘ziga urdi** – do‘q bilan yoki dalil bilan biror kishining yana so‘zlashiga yo‘l qo‘ymadi  
**Og‘ziga oldi** – gapirdi  
**Og‘ziga olmaydi** – 1)umuman iste’mol qilmaydi 2)gapirmaydi  
**Og‘zini poyladi** – biror fikrni o‘zicha aytishini kutdi  
**Og‘zini yumdi** – gapirishini to‘xtatdi  
**Og‘zini ochdi** – 1)angraydi 2) gap boshladi  
**Og‘izini juftladi** – gapirishga hozirlandi  
**Og‘izini ko‘pirtirdi** – ko‘p va maqtanib gapirdi  
**Og‘zini poyladi** – 1) tingladi, nima deyishini diqqat bilan kutdi 2) o‘z bilganicha ish qilmay, kimningdir ko‘rsatmasini kutdi  
**Og‘zining tanobi qochdi** – behad sevindi, xursandligi tufayli lab-lunjini yig‘ishtirib ololmaydi  
**Oila qurdi** – oilaviy hayot kechirishga kirishdi  
**Olam guliston** – hamma narsa ko‘ngildagidek, hech qanday e’tirozga o‘rin yo‘q  
**Olam munavvar** – hamma narsa ko‘ngildagidek, hech qanday e’tirozga o‘rin yo‘q  
**Olamdan ketdi** - qazo qildi, o‘ldi  
**Olamdan o‘tdi I** - yashadi  
**Olamdan o‘tdi II** - qazo qildi, o‘ldi  
**Oldidan o‘tdi** – biror ishni qilishdan oldin shundan kimnidir xabardor qildi  
**Oldiga tushadigan** – ustunlik qila oladigan  
**Oldini oldi** – kutilgan hodisaga qarshi chora-tadbir ko‘rdi  
**Oldini oldi** – kutilgan hodisaga qarshi chora-tadbir ko‘rdi  
**Oldi olindi** – kutilgan hodisaga qarshi chora-tadbir ko‘rildi

**Oldirib qo‘yan yuragi** - bezillab qolgan  
**Olib qochdi** - uddasidan chiqa olmaydigan ish yoki narsa haqida ortiq darajada maqtandi  
**Onasini ko‘rsatdi** – do‘q qildi, qo‘rquitdi, adabini berdi  
**Ona suti og‘zida** – hali yosh, tajribasiz  
**Ona suti og‘zidan ketmagan** – hali yosh, tajribasiz  
**Ona suti og‘ziga keldi** – haddan tashqari qiynalib ketdi  
**Ona suti og‘zidan keldi** – haddan tashqari qiynalib ketdi  
**Onasini uch qo‘rg‘ondan ko‘rsatdi** – do‘q qildi, qo‘rquitdi, adabini berdi  
**Oq ko‘ngil** – yaxshi niyatli, boshqalarga yomonlikni ravo ko‘rmaydigan  
**Oq ko‘ngillik** – to‘g‘rilik, yomonlikni bilmaslik  
**Oq-qorani ajratdi** – yaxshini yomondan, foydani zarardan ajratdi  
**Oq bilan qorani ajratdi** – yaxshini yomondan, foydani zarardan ajratdi  
**Oq-qorani tanidi** – yaxshi-yomonni, foyda-zararni bildi  
**Oq-qorani tushundi** – yaxshi-yomonni, foyda-zararni bildi  
**Oraga tushdi** - 1)ikki tarafni murosaga keltirish maqsadida biror janjalga aralashdi 2)jabrdiyda deb hisoblagan kishisini himoya qilib biror janjalli ishga arashdi  
**Ora ochiq bo‘ldi** – olish-berish muomalasini ro‘y-rost hal yetdi  
**Oralari ochiq** – bir-biriga qarzdor emas, bir-biriga malol keladigan hech nima o‘rtada yo‘q  
**Oralaridan qil ham o‘tmaydi** – nihoyatda ahil, inoq, yaqin  
**Oralarini buzdi** – o‘zaro munosabatini yomonlashtirdi  
**Orqasiga tushdi** – zimdan yurib butun xatti-harakatini ta’qib qildi  
**Oro berdi** – ko‘rinishini ko‘rkam, chiroyl qildi  
**Osmon bilan yercha** - juda katta, beqiyos  
**Osmon-u yercha** - juda katta, beqiyos  
**Osmonga ko‘tarib** – ortiq darajada, benihoya  
**Osmonga ko‘tardi** - ortiq darajada maqtadi  
**Osmonga uchsa, oyog‘idan, yerga kirsa, qulog‘idan tortadi** – qutulib ketishiga qo‘ymaydi  
**Ostonasiga bosh qo‘ydi** - xokisor bo‘ldi, xokisorlik qildi  
**Ot bilan tuyacha** – juda katta farq  
**Ota go‘ri-qozixonami?** – janjallashib, xafalashib o‘tirishga arzimaydi  
**Otdan tushsa ham, egardan tushmaydi** – mavqeini yo‘qotganiga qaramay, o‘zini avvalgiday tutadi  
**Otdan tushsa ham, uzangidan tushmaydi** – mavqeini yo‘qotganiga qaramay, o‘zini avvalgiday tutadi  
**Otilgan tosh** - yomonlik xatti-harakatlarini qildi  
**Otimni boshqa qo‘yaman!** – biror ishni bajarishga qasd qilganlikni bildirishda aytildi  
**Ochilgan ko‘z** - hushyor, yaxshi-yomonni tushunadigan  
**Oyog‘i tortmadi** – borgisi kelmadi  
**Oyog‘iga bolta urdi** – mavqeidan mahrum etadigan zarba yetkazdi  
**Oyog‘iga bosh urdi** – xokisor bo‘ldi, xokisorlik qildi  
**Oyog‘iga bosh qo‘ydi** – xokisor bo‘ldi, xokisorlik qildi  
**Oyog‘iga yiqlidi** – xokisor bo‘ldi, xokisorlik qildi  
**Oyog‘ini tirab oldi** – qaysarlik qildi  
**Oyog‘ini bir etikka suqdi** – o‘z ishining amalga oshishini qaysarlik bilan talab qildi  
**Oyog‘ini yerga tiradi** – qaysarlik qildi  
**Oyoq tiradi** – o‘jarlik qildi  
**Oyoq osti bo‘ldi** – poymol bo‘ldi, tahqirlandi  
**Oyoq osti qildi** – poymol bo‘ldi, tahqirlandi  
**Oyoq osti qilindi** – tahqirlandi  
**Oyoq osti qildirdi** – poymol qildirdi, tahqirlatdi  
**Oyoqni tiradi** – qaysarlik qildi

-X-

**Xabar berdi** – xabardor qilib qo‘ydi  
**Xabar topdi** – xabardor qilindi  
**Xabar oldi** – 1)o‘zi kelib xabardor bo‘ldi 2)biror kishining turish–turmushini, ahvolini yengillatishga ko‘maklashdi  
**Xalal yetkazdi** – zararli bo‘lib chiqди<sup>1</sup>  
**Xalaqit berdi** – monelik qildi  
**Xamir uchidan patir** – katta, ko‘p narsadan boshlang‘ich va kichik bir qism  
**Xamirdan qil sug‘urganday** – osonlik bilan, hech qanday qiyinchiliksiz  
**Xayol surdi** – hamma narsani unutgan holda o‘yladi  
**Xayol daryosiga cho‘mdi** – o‘ylanish holatida bo‘ldi  
**Xayolga cho‘mdi** – o‘ylanish holatida bo‘ldi  
**Xayolga toldi** – uzoq o‘ylandi  
**Xayolidan o‘tdi** – ma’lum bir muddat fikrladi  
**Xayolidan ko‘tarildi** - unutdi  
**Xayoliga keldi** – 1)o‘yladi, idrok qildi, fahmladi 2)xotirasida tiklandi  
**Xira ko‘ngil** – tashvishli, bezovta, notinch  
**Xotiradan chiqardi** – unutdi  
**Xotiriga keldi** – 1)xotirasida tiklandi 2)o‘yladi, idrok qildi  
**Xotiridan ko‘tarildi** – unutdi  
**Xotiridan chiqdi** – unutdi  
**Xursandchiligi ichiga sig‘maydi** - xursandligi oshib-toshib ketdi  
**Xo‘rligi keldi** – o‘ksinib, yig‘lab yuborish holtiga bordi  
**Xudo biladi** – aniq aytib bo‘lmaydigan  
**Xush ko‘rdi** – yoqtirdi  
**Xush keldi** – yoqdi

## MUNDARIJA

Alifbo.....
So'zboshi.....
Kirish.....
A.....
B.....
D.....
E.....
F.....
G.....
H.....
I.....
J.....
K.....
L.....
M.....
N.....
O.....
P.....
Q.....
R.....
S.....
T.....
U.....
V.....
X.....
Y.....
Z.....
G‘.....
SH.....
CH.....

